Xalkaro standart – bu standartlashtirish bilan shugullanadigan xalkaro tashkilot tomonidan kabul kilingan va iste'molchilarining keng doirasiga yarokli bulgan standartdir.

Mintakaviy standart esa, standartlashtirish bilan shugullanadigan mintakaviy tashkilot tomonidan kabul kilingan va iste'molchilarining keng doirasiga yarokli bulgan xujjatdir.

Davlatlararo standart «GOST» - bu standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish buyicha davlatlararo kengash tomonidan kabul kilingan, bajarilishi shart bulgan xujjatdir.

Milliy standart – bu standartlashtirish bilan shugullanadigan milliy idora tomonidan kabul kilingan va iste'molchilarining keng doirasiga yarokli bulgan standartdir.

Korxona standart – bu maxsulotga, xizmatga yoki jarayonga korxonaning tashabbusi bilan ishlab chikiladigan va uning tomonidan tasdiklangan xujjatdir.

Standartlardan tashkari raxbarlik xujjatlar, texnikaviy shartlar, standartlashtirish buyicha tavsiyanomalar, yuriknomalar (koidalar) xam mavjuddir. Raxbarlik xujjat deganda standartlashtirish idoralarining va xizmatlarning vazifalarini burchlarini va xukuklarini, ularning ishlari yoki ishlarining ayrim boskichlarini bajarish usullari, tartibini va mazmunini belgilaydigan me'yoriy xujjat tushuniladi.

Texnikaviy shartlar (Uz TSH) – bu buyurtmachi bilan kelishilgan xolda, ishlab chikaruvchi tomonidan yoki buyurtmachi tomonidan tasdiklangan anik maxsulotga (xizmatga) bulgan texnikaviy talablarni belgilovchi me'yoriy xujjatdir.

Yuriknama (koidalar) – instruksiya (pravila) – bu ishlarni yoki ularning ayrim boskichlarini mazmuni va tarkibini belgilovchi me'yoriy xujjatdir.

Umuman standartlashtirish maxsulotning sifatini xalkaro iste'mol talabiga javob berishi ma'lum bir me'yoriy xujjatlar talablariga tugri kelishini ta'minlashi lozim. Standartlashtirish amalga oshirilishi uchun bir kancha yukorida keltirilgan xujjatlar tayyorlanadi

Savol : 1. Standartlashtirish nima xakida ma'lumot beradi ?

- 2. Xush standart nima ?**
- 3. Standartlar darajasiga karab kanday turlarga bulinadi**
- 4. Raxbarlik xujjati nima ?**
- 5. Texnikaviy shartlar nima ?**
- 6. Yuriknama kanday me'yoriy xujjat ?**

MAVZU-4 : Standartlashtirish maksadlari va vazifalari. Asosiy koidalari.

Maksad: Uzbekiston Respublikasi konuniga kiritilgan standartlashtirishning asosiy koidalari, maksadlari va fazifalari tugrisida talabalarga tulik tushuncha berish.

Reja : 1. Standartlashtirshning asosiy maksadlari.

2. Standartlashtirish ishlarini tashkil etish.

3. Standartlarni ishlab chikish tartibi.

4. Standartlarni tasdiklash va davlat ruyxatidan utkazish.

Tayanch iboralar: standart, standartlashtirish, milliy standart, mintaqaviy standart, Uz.dav.standart

1. Standartlashtirshning asosiy maksadlari.

Uzbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi . Asosiy koidalari UzRST 1.0 – 92 standartda keltirilgan. Bu standart standartlashtirishning asosiy vazifa va maksadini, standartlashtirish ishlarining tashkil etilishi va asosiy konunkoidalalarini , me'yoriy xujjatlarning toifasini , standartlar turlarini , xalkaro xamkorlik buyicha asosiy koidalarni , standartlar va texnikaviy shartlarning kullanilishini, standartlarga va ulchash vositalariga nisbatan davlat nazoratini belgilaydi.

Standartlashtirshning asosiy maksadlari kuyidagilardan iborat :

- maxsulotlar, ishlar va xizmatlarning axolining xayoti, salomatligi va molmulki, atrof – muxit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilarining va davlatning manfaatlarini ximoya kilish ;
- maxsulotlarning uzaro bir – birining urnini bosishini va bir – biriga monandligini ta'minlash ;
- Fan va texnika tarakkiyoti darajasiga , shuningdek axoli va xalk xujaligining extiyojlariga muvofik maxsulotlarning sifati xamda rakobatbardoshligini oshirish ;
- Resurslarning barcha turlarini tejashga , ishlab chikarishning texnik va iktisodiy kursatkichlarini yaxshilashga kumaklashish ;
- Tabiy va texnogen falokatlar va boshka favkulotda vaziyatlar yuzaga kelish xavf- xatarni xisobga olgan xolda xalk xujaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlash ;
- Iste'molchilarni ishlab chikarilayotgan maxsulotlar nomeklaturasi va sifati tugrisidagi tulik va ishonarli axborot bilan ta'minlash ;
- Mudofa kobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash ;
- Ulchashlarning yagonaligini ta'minlash ;
- Ishlab chikaruvchi ma'lum kilgan maxsulot sifati tugrisidagi kursatkichlarni tasdiklash ;

Standartlashtirshning asosiy vazifalari kuyidagilar :

- Iste'molchi va davlatning manfati yulida maxsulotning sifati va nomiga nisbatan eng makbul talablarni kuyish ;

- Davlat Respublika fukorolari va chet el extiyoji uchun tayyorlangan maxsulotga kerakli talablarni belgilovchi me'yoriy xujjatlar tizimini va uni ishlab chikarish koidalarini yaratish, ishlab chikish va kullash ;
- Standart talablarining sanoati rivojlangan chet mamlakatlarning xalkaro, mintakaviy va milliy standartlari talablari bilan uygunlashuvini ta'minlash ;
- Bir – biriga mosligining barcha (konstruktiv , elektrik, elektromagnitli , informatsion, dasturli va boshkalar) turlarini , shuningdek, maxsulotning uzaro almashinuvchanligini ta'minlash ;
- Parametrik va turlar ulchov turlarining tayanch konstruksiyalarini , bularning konstruktiv jixatdan bir xil kilingan modullashgan bloki tarkibiy kismlarini aniklash va kullash asosida bir xillashtirish ;
- Maxsulot uning tarkibiy kismlari, buyumlari , xom ashyo va materiallar kursatkichlari va tafsifining kelishib olinishi va boglanishi ;
- Materialarga energiya sigimini kamaytirish, kam chikindi chikarish texnologiyalarni kullashi ;
- Metrologik me'yor, koida nizom va talablarning belgihanishi ;
- Standartlashtirish buyicha xalkaro tajribadan foydalanishni keng avj oldirish, mamlakatning xalkaro va mintakaviy standartlashtirishda ishtirok etishni kuchaytirish ;
- Xorijiy davlatlarning talablari Uzbekiston Respublikasining xalk xujaligi extiyojlarini kondiraolgan xollarda ularning xalkaro , mintakaviy va milliy standartlarini mamalakat standartlari va texnikaviy shartlari tarikasida tugridan – tugri kullash tajribasini kengaytirish ;
- Texnologik jaraenlarga talablarni belgilash ;
- Maxsulotni standartlashtirish va uning natijalaridan foydalanish soxasida xalkaro xamkorlik kilish yuzasidan ishlarni tashkil kilish ;
- Sinovlarni me'yoriy texnika jixatidan ta'minlash, maxsulot sifatini sertifikatsiyalashtirish, baxolash va nazorat kilish ;
-

2. Standartlashtirish ishlarini tashkil etish.

Vazirlar Maxkamasining «UzR sida standartlashtirish buyicha ishlarni tashkil kilish» tugrisidagi 1992 yil 2 martdagи 93 – sonli karoriga muvofik Uzbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish buyicha milliy idora xisoblanadi.

Uzbekiston Respublika standartlashtirish buyicha ishlarning tashkil etishni , muvofiklashtirilishini va ishlarning makbul darajada olib borilishini kuyidagi idoralar ta'min kiladilar.

- tarmoklararo yunalishga belgilangan maxsulot buyicha Uzdavstandart ;
- kurilish va kurilish sanoati, loyixalash konstruksiyalash buyicha Uz Respublikasi Davlat arxitektura va kurilish kumitasi ;
- tabiy resurslaridan foydalanishni yulga kuyish, atro-muxitni ifloslanishidan va boshka zararli ta'surotlardan muxofaza kilish soxasi buyicha - Uzbekistonda Davlat tabiatni muxofaza kilish kumitasi ;
- tibbiyot yunalishidagi maxsulotlar, tibbiy texnika buyumlari, dorivor moddalar va Respublika sanoati ishlab chikaradigan maxsulot tarkibida inson uchun

- zararli moddalar mikdorini tartibga solish soxasida - Uzbekiston Respublikasi soglikni saklash Vazirligi ;
- Uzbekiston Respublikasida standartlashtirish buyicha ishlarni vazirliklar, texnikaviy kumitalar, korxonalar, birlashmalar va boshka manfaatdor tashkilotlarning istikbolli rejalari asosida tuzilgan yillik reja buyicha Uz davstandart amalga oshiradi.

Mana shu Uz davstandart, Davlat arxitektura kurilish kumitasi, Davlat tabiatni muxofaza kilish kumitasi, soglikni saklash vazirligi Respublika standartlarini kurib chikadilar, tasdiklaydilar, ularning kullanilishi muddatini chuzadilar va bekor kiladilar xamda unga uzgartirishlar kiritadilar.

Respublikada ishlab chikilgan standartlar va ularga uzgartirishlar tasdiklanishi darajasidan kat'iy nazar Uz davstandart davlat ruyxatidan utkazilishi lozim. Korakalpogiston Respblikasi , viloyatlar va shaxarlarda standartlashtirish buyicha ishlarni yukoridagi kumita va vazirliklarning tegishli xududiy idoralari amalga oshiradi.

Savol : Standartlashtirish buyicha ishlarni kaysi idoralar nazorat kiladi ?

Standartlashtirish ob'ektining uziga xos xususiyatlariga va unga belgilanadigan talablar mazmuniga boglik ravishda Uz Respublikasi standartlashtirish tizimi asosiy turdag'i standartlarni nazarda tutadi :

- asos buluvchi standartlar ;
- umum texnikaviy standartlar ;
- texnikaviy shartlar (maxsulot jaraen va xizmatlar uchun) standartlari ;
- texnikaviy talablar standartlari ;
- nazorat usullari (sinovlar, analizlar, ulchashlar, ta'riflar) standartlari.

3. Standartlarni ishlab chikish tartibi.

Lozim bulganda takdirda maxsulotning asosiy texnikaviy – iktisodiy kursatkichlarini, uning nomlarini (turlarini) okilona tarkibi va boshka talablarni anik belgilaydigan bir turdag'i maxsulot guruxiga standart ishlab chikilish mumkin.

Standartlarni ishlab chikarishda tashkiliy usuliy birlikka erishish maksadida xamda standartni ishlab chikarish boskichlari bajarilishini nazorat kilish uchun 4 boskich joriy etilgan.

1 – boskich - zaruriyat tugulganda standartni ishlab chikishda texnikaviy topshirik ishlab chikiladi va tasdiklanadi.

2 – boskich - standart loyixasini ishlab chikish (birinchi taxriri) va uni fikr-muloxazalar olish uchun yuborish.

3 – boskich - fikr - muloxazalar ustida ishlash standart loyixasini ishlab chikarish (oxirgi taxriri), kelishish va tasdiklashga takdim etish.

4 – boskich – standartni tasdiklash va davlat ruyxatidan utkazish.

Standartlarni ishlab chikish boskichlarini bir – biri bilan kushib olib boriladi.

Standart loyixasi tushuntirish xati va asosiy tadbirlar rejası loyixasi bilan birgalikda kupaytiriladi va ruyxat buyicha xamma manfaatdor tashkilotlarga fikr – muloxazalar olish uchun yuboriladi.

Standart loyixasi korxona va tashkilotlar tomonidan kurib chikiladigan sung uz fikr muloxazalarini tuzib, standartni ishlab chikuvchi tashkilotga kabul kilgan kundan boshlab 15 kun ichida , kechiktirmasdan yuboriladi.

Korxona va tashkilotlar tomonidan yuborilgan standart loyixasi buyicha fikr – muloxazalar kayta ishlab chikilib, ular asosida fikr-muloxazalar majmui tuziladi.

Etakchi ishlab chikuvchi tashkilot tuzilgan fikr muloxazalar majmuiga binoan standart loyixasining sungi taxririni ishlab chikadi xamda tushuntirish xatini va asosiy tadbirlar rejasining loyixasini aniklaydi. Agar ishlab chikaruvchi tashkilot bilan manfaatdor tashkilotlar orasida bu tadbir rejasining loyixasi buyicha kelishmovchilik bulsa, etakchi ishlab chikaruvchi tashkilot kengash chakiradi. Kengash katnashchilariga munozarali masalalar buyicha fikr muloxazalar majmuidan kuchirmalar yuboradi. Kengash taklifnomalarni uning katnashchilariga kengash boshlanishiga kamida 10 kun kolganda olinadigan kilib yuboriladi.

Standartga uzgartirish kiritilganda , agar u ilgari kelishib olingen tashkilotlarning manfaatlariga monelik kilmasa, uzgartirish, standartni bekor kilish yoki joriy etish vaktini chuzish fakat buyurtmachi (asosiy iste'molchi) bilan kelishiladi.

Standart loyixasi tasdiklashga ishlab chikuvchi tashkilot tomonidan kuyidagicha tuplamda beriladi :

- ilova xati ;
- standart loyixasining sungi taxririga tushuntirish xati ;
- asosiy tadbirlar rejasining loyixasi ;
- standart loyixasining 4 ta nusxasi (ulardan 2 tasi birinchi nusxa kurinishda bulishi shart) ;
- standart loyixasi kelishilganini tasdiklovchi xujjatlarning asl nusxasi
- standart loyixasi tugrisida fikr muloxazalar majmui ;
- kolgan kelishmovchilar xakida ma'lumotnomasi ;

Uzbekiston Respublikasi davlat standart Davlat arxitektura kurilish kumitasi, tabiatni muxofaza kilish davlat kumitasi va soglikni saklash Vazirligi nomlari buyicha uzlariga tegishli standartlarning loyixalari va xujjatlarini kipi bilan 15 kun mobaynida kurib chikilishini, shuningdek davlat ekspertizasidan utkazilishini ta'minlaydilar .

Uzdavstandart, Davlat arxetikturasi kurilish kumitasi tabiatni muxofaza kilish davlat kumitasi va soglikni saklash Vazirligi standart loyixalarini kurib chikadi va uni tasdiklash yoki kam – kustini tuldirib kayta ishslash tugrisida karor kabul kiladi.

Standart uni tasdiklagan tashkilotning karori bilan tasdiklnadi va joriy kilinadi.

Standart muddati cheklangan yoki muddati cheklanmagan tarzda tasdiklanadi.

Uzbekiston Respublikasi xududidagi standartlarni davlat ruyxatiga olishni Uzdavstandart amalga oshiradi. Davlat ruyxatidan utkazish uchun standart 4 nusxada topshirishilishi lozim : asl nusxasi, ikkinchi nusxasi va ikkita kuchirmasi.

Standartni davlat ruyxatidan utkazish uchun juz band kilib, mukovalab topshirish lozim. Standart 5 kundan oshmagan muddatda davlat ruyxatidan utkaziladi.

Standartning kaysi tashkilot tomonidan tasdiklanganidan ka'tiy nazar, standartga rakamli belgini Uzdavstandart beradi.

Belgi navbatida ;

Xujjatning kursatkichidan – Uz RST ; ruyxatning tartib rakamidan va tasdiklangan yilning oxirgi ikki sonidan iborat buladi. Mas : UzRST 5-92 « Nixrom simli reostat».

Savol :

1. Standartlashtirishning asosiy maksadlari nimalardan iborat ?
2. Standartlashtirishning asosiy vazifalari nimalardan iborat ?
3. Standartlar kanday boskichlarda ishlab chikariladi ?
4. Standartlarga kaysi tashkilot rakamli belgini beradi ?

MAVZU-5: Maxsulot sifati va sifat boshkaruvi.

Maksad : **Maxsulot ishlab chikarish sharoitlarini tekshirish va sifat boshkaruvi xakida umumiy ma'lumotga ega bulish.**

Reja: 1. Maxsulot sifatini tanlash va unga kuyiladigan talablar.

2. Maxsulot sifatini oshorishdagi talablar.

3. Maxsulot xakidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash .

4. Maxsulotni shtrixli kodlanishi uchun ayrim davlatlarning EAN kodi

Maxsulot sifatini tanlash va unga kuyiladigan talablar.

Belgilangan maxsulotning sifat kursatkichlarining nomenkulaturasini tanlash, bu kursatkichlarining kiymatlarini aniklash va ularni asos buluvchi kiymatlar bilan takkoslashni uz ichiga oluvchi ishlarning yigindisi maxsulot sifatining darajasini baxolash deb ataladi. Maxsulot sifatining darajasini baxolash uchun maxsulotlar ikkita turkumga bulinadi:

- foydalanishda sarflanadigan maxsulot ;
- uz resursini sarflaydigan maxsulot.

Maxsulot sifatining kursatkichlar nomenkulaturasini tanlab olishni asoslash kuyidagilarni inobatga olgan xolda amalga oshiriladi :

- maxsulotni ishlatilishidagi sharoitlarini va vazifasini ;
- iste'molchilar talablarining taxlilini ;
- maxsulot sifatining tavsiflanuvchi tarkibini va tuzilishini ;
- sifat kursatkichlariga bulgan asosiy talablarni .

Maxsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni turt toifaga bulish mumkin :

Texnikaviy ;

Tashkiliy ;

Iktisodiy ;

Ijtimoiy.

Texnikaviy omillarga uskunalarnig jixozlanish, asboblarning xamda nazorat vositalarining, texnikaviy xujjatlarning xolati; dastlabki materiallar, yarimfabrikatlarning sifati va shunga uxshashlar kiradi.

Tashkiliy omillarga rejalik, bir maromda ishslash, texnikaviy xizmat va uskunalarni ta'mirlash; materiallar, komplektlanuvchi buyumlar, jixozlanishi,

asboblarni texnikaviy xujjatlар va nazorat vositalari bilan ta'minlanganligi, ishlab chikarish madaniyati ; mexnatni ilmiy asosda tashkil etish; ovkatlanish va ish vaktida dam olishni tashkil etish va boshkalar kiradi.

Iktisodiy omillarga mexnatga pul tulash shakllari, oylik maoshning mikdori ; yukori sifatli maxsulotni va ishni moddiy ragbatlantirish ; maxsulotning yaroksizligi uchun oylik maoshidan ushlab kolish; uning sifat darajasi ; tannarxi ; maxsulotning baxosi va shunga uxshashlar kiradi.

Ijtimoiy omillarga kadrlarni tanlash , joy-joyiga kuyish ; malaka oshirishni tashkil kilish ; ilmiy – texnikaviy ijodni ,ijodkorlik va ixtirochilikni tashkil etish, turmush sharoitlari, uzaro munosabatlar, jamoadagi psixologik iklim va tarbiyaviy ishlar kiradi.

2. Maxsulot sifatini oshorishdagi talablar.

Maxsulot sifatini tashkil topishi, uning xamma xayotiy boskichlarida - tadkikot va loyixalash ishlarida ; ishlab chikarishda ; muomalada; iste'molda yoki ishlatishda namoyon buladi.

Tadkikot va loyixalash ishlari maxsulotning sifatini oshirilishida belgilovchi urinni egallaydi. Bu boskich sifatni tashkil topishining boshlanishi xisoblanib, bunga ilmiy –texnika tarakkiyotining kullanishi natijasida xamda me'yoriy xujjatlarni maxsulot ishlab chikarish uchun uni muomalada, iste'molga yoki ishlatilishiga belgilangan iktisodiy kursatkichlariga rioya kilgan xolda tayyorlash natijasida erishiladi. Bu boskichda kuyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

-andozalar, sifat kursatkichlariga ega bulgan namunalarga yunaltirilgan ilmiy-tadkikot , tajriba – konstrukturlik va boshka ishlarni bajrish ;

- me'yoriy xujjatlarni ishlab chikish va joriy kilish ;
- standartlarga rioya kilinishida uz-uzini nazorat kilishni amalga oshirish ;
- maxsulot sifatining darajasini istikbollash va me'yorlash ;

- maxsulot sifatini rejalangan darajasiga erishish, turli usullarni tayyorlash choralarini joriy kilish, sinash va nazoratga yunaltirilgan konstrukturlik va texnologik tadbirlarni ishlab chikish ;

- bizda va xorijda chikarilayotgan shu xildagi maxsulot sifati xakidagi axborotni taxlil kilish ;
- maxsulot sifatining kursatkichlarini va shuningdek sifat darajasini baxolashni tasniflash va aniklash .

Maxsulot sifatini boshkarish tizimlari ishlab chikish boskichida texnikaviy darajani rivojlanishini yukori sur'atlarda doimo bulishini ta'minlaydi.

Murakkab va mas'uliyatli buyumlar uchun ishlab chikishda sifat boshkarish jaraenida maxsus ish rejali tuziladi. Maxsus, sanoat korxonalarida konstrukturlik texnologik bulim (byuro)larda yangi maxsulot namunalarini ishlab chikish mumkin. Bunda asosiy e'tibor ushbu buyum namunasi xakikatdan yangi bulishligiga yoki ishlab chikarishdagi buyumlarni takomillashganligiga karatiladi.

Maxsulotni ishlab chikarishga tayyorlash boskichiga optimal texnologik jaraenlarni tanlash kiyin va u ma'suliyatoi vazifa, chunki bu boskichda doimiy texnologiyaning kiyinlashishi xamda ishlab chikarishning iktisodiy kursatkichlarini

yaxshilash zaruriyati buladi. Tayyorlash boskichida maxsulot sifatini oshirish korxonaning asosiy vazifalaridan biri xisoblanadi.

Maxsulotni ishlab chikarish boskichida esa kuyidagi tadbirlar amalga oshirilishi muljallanadi :

- maxsulotni bevosita tayyorlash ;
- uskunalarning, jixozlarning, nazorat ulchash texnikasining sifatini kerakli darajada bulishini ta'minlash va nazorat kilish ;
- maxsulot sifatini oshirish, yaroksizlikni oldini olish, me'yoriy xujjatlarga mos kelmaydigan maxsulot ishlab chikarish sabablarini bartaraf kilish tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirish ;
- me'yoriy xujjatlarni joriy kilish va ularga kat'iy rioya kilish ;
- korxonaga tushaetgan xom ashyoning, materiallarning, yarimfabrikatlarning komplektlanuvchi buyumlarning kirishdagi nazoratini urnatish ;
- chikarilaetgan maxsulotning ish bajarishdagi , kabuldag'i va sinashdagi nazoratini urnatish ;
- tekshiruvchan nazoratga, me'yoriy xujjatlarga rioya kilish ;
- ishlatilish boskichidagi maxsulotning sifati xakidagi axborotni yigish va tuplash, uning yaroksizligini , u xakidagi shikoyatlarni xisobga olish va taxlil kilish ;
- xom ashyo, materiallar, yarimfabrikatlar, komplektlanuvchi buyumlarni va tayyor maxsulotni omborlarda, korxona ichidagi transportlarda me'yoriy xujjatlarning talablariga binoan olib yurilishini ta'minlash va nazorat kilish;
- belgilangan sifat darajasidagi maxsulotni chikazishda korxonaning xodimlarini moddiy va ma'naviy ragbatlantirish.

Ishlab chikarish birlashmalarida , korxornalarda ishlab chikarish boskichida kuyilgan maksadlarga va vazifalarga erishishda maxsulot sifatini boshkarish tizimlari ta'minlaydi.

Maxsulot xakidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash .

Ba'zan biror maxsulot xarid kilganimizda uning kurinarli joyida yoki etiketkasida xar xil kalinlikdagi chiziklar va rakamlar bilan belgilangan shakillarni kurishimiz mumkin. Ularga shtrix – kod nomi berilgan. Xush, shtrix-kodlar nima va kachon paydo bulgan ?

SHtrix – kodlardan maxsulotlarga nisbatan tadbik etish goyasi ilk bora 30 – yillarda AKSH ning Garvard biznes mакtabida yaratilgan bulib, undan amalda foydalanish bir necha un yillardan sunggina, ya'ni 60 - yillardan boshlangan. SHtrix - kodlarni dastlabki kullovchilar temir yulchilar bulib, shu usul orkali temir yul vagonlarini identifikatsiyalashgan. Mikroprotsessor texnikasining gurkirab rivojlanishi 70 - yillardan boshlab shtrix – kodlardan keng ravishda foydalanish imkonini yaratadi. 1973 yil AKSHda Maxsulotning Universal Kodi (IPC) kabul kilinib, 1977 yildan boshlab esa Evropa Kodlash Tizimi EAN (European Article Numbering) ta'sis etildi va xozirda undan nafakat Evropada, balki boshka mintakalarda xam keng ravishda foydalanishmokda.

SHtrix-kod ketma-ket almashinib keluvchi kora (shtrix) va ok (probel) rangli, turli kalinlikdagi chiziklardan iborat bulib, bu chiziklarning ulchamlari

standartlashtirilgan. SHtrix-kodlar maxsus optik kurilmalar – skanerlar yordamida ukishga muljallangan. Uning vositasida, mikroprotsessorlar orkali shtrixlar rakamlarga dekoderlanib, maxsulot xakidagi ma'lumotlar kompyuterga uzatiladi.

Kupgina iktisodiy rivojlangan davlatlarda maxsulotning uramida (upakovkasida) shtrix kodning bulishi majburiy sanaladi. Aks xolda savdo tashkilotlari maxsulotdan voz kechishlari mumkin. Bu xalkaro savdoga xam tegishlidir. Ushbu tizimning iktisodiy jixatdan samaraliligi maxsulotning 85 foizidan kupi kodlashtirilganda yakkol namoyon buladi. Bundan tashkari, maxsulotga nisbatan bulgan talab va extiyojlarni shakillantirish, jamlash, xisobga olish, maxsulotni kelish- ketishini xisob kilib borish, muxosiblik xisoblarida va xujjatlarni rasmiylashtirishda , xamda maxsulotlarni saklash va sotuvidagi nazoratlarni amalga oshirishda aloxida urin tutadi.

Asosan EAN ning ikki kodidan kuproq foydalilanadi : 13 razryadli va 8 razryadli rakamli kodlar. Bunda eng ingichka shtrix birlik sifatida olinadi. Xar bir rakam (yoki razryad) ikki shtrix va ikki probeldan iborat buladi (1 – 2 - rasmlar) 13 razryadli kodning tarkibida kuyidagi kodlar kursatiladi.

- Davlat kodi («davlat bayrogi»)
- Korxona (firma) – tayyorlovchi kodi ;
- Maxsulotning kodi ;
- Nazorat soni.

EAN assotsiatsiyasi turli davlatlar uchun kodlar ishlab chikkan bulib, ushbu kodlardan foydalanish uchun markazlashgan tarzda litsenziyalar tavsiya etadi. Masalan, Fransiya uchun davlat kodi sifatida 30 – 37, Italiya uchun 80-87 oraliklari tavsiya etilgan. Ba’zi davlatlarning kodlari uch xonali sondan iborat. Masalan, Gretsiya – 520, Rossiya – 460, Braziliya – 789. Kuyirokda keltiriluvchi 2.1. jadvalda ba’zi bir davlatlarning litsenziya asosida olingan kodlari keltirilgan.

4. Maxsulotni shtrixli kodlanishi uchun ayrim davlatlarning EAN kodi

Davlat kodi	Davlat nomi	Davlat kodi	Davlat nomi	Davlat kodi	Davlat nomi
93	Avstraliya	539	Irlandiya	383	Sloveniya
90-91	Avstriya	569	Islandiya	00-09	AKSH va
779	Argentina	84	Ispaniya		Kanada
54	Belgiya va Lyuksemburg	80-83	Italiya	869	Turkiya
380	Bolgariya	529	Kipr	64	Finlyandiya
789	Braziliya	690	Xitoy	30-37	Fransiya
50	Buyuk Britaniya	850	Kuba	859	CHexiya
599	Vengriya	750	Meksika	780	CHili
759	Venesuela	87	Niderlandiya	73	SHvetsiya
400-440	Germaniya	94	YAngi-Zelandiya	76	SHveysariya
489	Gonkong	70	Norvegiya	860	YUgoslaviya
520	Gersiya	590	Polsha	880	Janubiy
57	Daniya	560	Portugaliya		Korea
729	Isroil	460-469	Rossiya	45-49	YAponiya
		888	Singapur	478	Uzbekiston

Tayerlovchi korxonaning kodi xar bir davlatda tegishli organlar tomonidan tuziladi. Odatda , bu kod beshta rakamdan iborat bulib, davlat kodidan keyin keladi.

Maxsulot kodi tayyorlovchi tomonidan tuziladi va u xam beshta rakamdan iborat buladi. Bu kodning rasshifrovkasi standart emas, u maxsulotga taallukli bulgan muayyan xususiyatlarni (belgilarni) yoki fakat tayyorloving uzigagina ma'lum bulgan va shu maxsulotning kayd etish tartibi rakamini ifodalashi xam mumkin.

Nazorat soni EAN algoritmi buyicha kodni skaner vositasida tugri ukilganligini tekshirish uchun xizmat kiladi.

EAN – 8 kodi uzun kodlarni belgilab bulmaydigan kichik uramlar (upakovkalar) uchun muljallangan. EAN – 8 kodi kuyidagi kodlar tartibidan iborat.

- Davlat kodi («davlat bayrogi»)
- Korxona (firma) – tayyorlovchi kodi ;
- Nazorat soni.

Ba'zan , tayyorlovchi korxona kodining urniga maxsulotning kayd etish tartib rakami keltirilishi xam mumkin.

Boshkaruv va nazorat organlariga tezkor ravishda maxsulot xususidagi ma'lumotlarni tavsiya etish.

Birok xaridor sotib olayotgan maxsulotning fakat tayyorlangan davlati borasidagi ma'lumotnigina emas, balki tegishli barcha ma'lumotlarni xam bilishni istaydi. Bu muammo xam vakti kelib standartlashtirish yuli bilan tasdiklanuvchi , standartlarning majburiy talablarining ruyxatini kengaytirish lozim buladi.

Savollar: 1. Maxsulot sifatini tanlashda kanday talablar kuyiladi?

2. Maxsulot sifatini oshirish kanday boskichlarda amalga oshiriladi?

3. SHtrix- kodning vazifasini tushuntirib bering.

4.Kaysi davlatlarning EAN kodini bilasiz?

MAVZU-6: Standartlash va ekologiya.

Maqsad: Talabalarni ekologiya va standartlash tushunchalari bilan tanishtirish.

Reja :

- 1. Ekologiya sharoitida standartlash.**
- 2. Atrof – muhitni himoya qilishda chet eldag'i milliy qonunlar.**
- 3. Atrof – muhitni himoya qilishda chet el standartlari.**

Kalit so‘zlar: standart, ES, ekologiya, standartlash, ekobelgi, sifat, ekostandartlash.

Standartlar – bu atrof – muhitni sifati bilan boshqaruvchi belgidir. Butun jahon hamjamiyati atrof – muhitni himoya qilish uchun juda katta ishlar olib boryapti. Masalan: ESning ekologiya sharoitida 90dan ortiq direktiv qabul qilingan. Ular ES general siyosati bilan bog‘liq masalalar atrof – muhit himoyasi, suvning sifati, havoning sifati, biotexnologiyalar, chiqindilar va shovqinlar haqidadir. ESdagi general siyosat politikasi ishlab chiqarishdagi isroflanishga bog‘liq; atrof – muhitni himoya qilishda davlatlarning o‘rni. Atrof – muhitni himoya qilishda Evropa agentligining tuzilishi, kabi masalalar.

Suv bilan bog‘liq direktivlar: daryolar, ko‘llar va boshqa suv havzalari muhofazasi; ichimlik suvi bilan bog‘liq savollar, preslangan suv sifati haqidagi masalalar bilan shug‘ullanadi.

Havo bilan bog‘liq direktivlar: xavfli birikmalar va preparatlarni ishlatishni cheklashni, upakovka va markirovkaga xavfli birikmalarning tushishini, xavfli ximikatlarning eksport va importi talablarini o‘z ichiga oladi.

CHiqindilar bilan bog‘liq direktivlar shuni belgilaydi: shahar sharoitida suvni tozalashni talab qiladi, havoni kirlanishdan himoya qilish, chiqindilarni yoqib yuborish uchun ustanovkalar va ... SHu vaqtning o‘zida ESda chiqindilarni mekvidatsiya qilish bo‘yicha strategiya tuzilgan.

SHovqinlarni cheklash uchun direktivlar: shovqin darajasini normaga keltiradi, mashinalarda, samolyot va mototsikllarda va hokazo.

Standartlangan ekologiya muhim bir aspekti-chiqindilarning ishlab chiqilishi va iste’mol qilish utilizatsiyasi. Tadqiqodchilar shuni sanab chiqdilarki, odamzod tarixda mavjudki, xom-ashyo 5% ishlatib kelinmoqda. 20%ga yaqini promishlangan chiqindilar, qolgan 70% boshqa chiqindilar. Masalan Rossiyada million hektar er 70 mldri tonna chiqindi egallaydi, qaysilaridir xozirgi vaqtida ham mavjud. Ekologik normalar bo‘yicha milliy standartlar shular bo‘yicha qonunlar ishlab chiqaradi. O‘zbekistonda chiqindalarni ishlab chiqarish va iste’mol qilish utilizatsiyasi bo‘yicha qo‘yidagi qonunlar mavjud:

- YAgona tabiat zonalari haqida
- Standartlashtirish haqida
- Metrologiya haqida
- Produksiyani sertifikatlash
- Iste’molchilar himoyasi haqida
- Sanitar nadzorlar va

CHiqindi utilizatsiya tashvishlarini echish “2-geologiya”ning paydo bo‘lishiga olib keladi. CHet elda standartlarning komplekslari yaratilgan. U erda chiqindilarni qayta ishslash texnologiyasi mavjud. CHet elda atrof – muhitni himoya qilish to‘g‘risidagi milliy qonunlar.

Davlat	Qabul qilingan yili	Qonunning nomlanishi
AQSH	1970	Atrof – muhitni himoya qilishni mil.politikasi
AQSH	1972 qo‘srimcha bilan 1980-1984	Dengizlarni va suv havzalarini himoya qilish
AQSH	1980 qo‘srimcha bilan 1986	
AQSH	1976 qo‘srimcha bilan 1980-1984	Xom-ashyo va resurslarni qayta ishslash haqida
AQSH	1972 qo‘srimcha va tuzatishlar bilan 1975-1978	Inseksidlar, finitsidlar va rodentitsidlar haqida
AQSH	1976	
Buyuk Britaniya	1974	
Fransiya	1976	Tabiat muhofazasi
Yaponiya	1967	Kurash haqida qonun

CHiqindi ishlab chiqarishning utilizatsiyasi ishlab chiqarish sifati va uni boshqarishga bog‘liq. Mahsulotni ishlab chiqarishgacha va hayotiy sikligacha bo‘lgan davrda unga normativ talablar ishlab chiqariladi va nazorat qilinadi. Masalan: AQSHda ta’sir etayotgan qonunlar asosida har bir tayyorlovchi, yangi ishlab chiqarilgan tovarlar uchun bu chiqindilarni atrof – muhitda bo‘lishi uchun ekologik ekspertizadan o‘tkazish kerak. Agar xavfli chiqindilar bo‘lishi kutilsa, mahsulot tayyorlovchi atrof – muhitni himoya qilish bo‘yicha agentlikdan qayta o‘tkazadi. YUzaga kelgan ishlab chiqarish chiqindilari keyin kuzatilib va nazorat qilinib, standartlarga mos kelishi, faqatgina uning tarkibi bo‘yicha emas, balki uni tashish va qayta ishslash uchun yaroqligi ham aniqlanadi.

Sobiq ittifoqda chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha normativ baza yaratilmagan edi, ammo bu masalalar 1975 yildan davlat ta’midotida muxokama qilingan. Rossiyada chiqindilarni standartlash 1990 yilning boshidan boshlangan. Ishlab chiqarishning qattiq chiqindilar va iste’moli haqida qonun loyihasi ishlab chiqilgan.

Ammo to‘g‘ri ta’sir etuvchi bu chegaradagi qonunlar hozircha bo‘lmasada asosiy polni texnik qonunchilik bajarishi kerak, ya’ni bular standart va boshqa texnik xujjatlardir. Standartlashtirish bilan “2-material (resurslari)” texnik komiteti shug‘ullanadi, qaysi ishlab chiqarish chiqindilar va iste’molini davlat standartlarini loyixalash va chiqindilarni boshqarish konsepsiyasini tayyorlaydi. Muhim aktual natija deb shuni hisoblash mumkinki, bu tayyorlangan ES direktiv loyihalari, xavfli aralashmalar haqida informatsiyaning tizimini aniqlash. Bundan tashqari Rossiya davlat standarti POST aralashmalar xavfsizligi pasporti Rossiya federatsiya boshqarmasining qarori bo‘lib, bu korxonalarining raxbarlarini chiqindilar haqida aniq va ishonchli informatsiya berish, jumladan ularning xavfsizligi zahiraviy komponentlar miqdori va boshqalar...

Sinov savollari:

- 1. Ekologiya sharoitida standartlash.**
- 2. Atrof – muhitni himoya qilishda chet eldag‘i milliy qonunlar.**
- 3. Atrof – muhitni himoya qilishda chet el standartlari.**

MAVZU-7: Standartlashtirish va marketing

Maksad:

Standartlashtirish va marketing togrisida tushuncha berish xamda maxsulot sifatiga kuo‘iladigan talablar bilan tanishish.

Redja:

- 1. Maxsus standartlar.**
- 2. Marketingdagi standartlashlar.**
- 3. Standartlash va istemollar.**

Tayanch iboralar:Tartiblangan standart, standart, marketing, YAT, ekomarkirovka, ekologiya, standartlashtirish, ekobelgi, sifat, ekostandartlashtirishlar.

Maxsus standartlar.

Avvalo milliy standartlash buyicha emas, balki maxsus standartlar buyicha gapiriladi, chunki bu standartlar yukoridagi millio‘ storlarning maxsulot sifatlariga kuyilgan, konunlashtirilgan tartibdagi talablariga karshi fikr yuritilmaydi (xavfsizlik ekologiya va boshkarish) firmaning bozordagi faoliyati djarao‘onida maxsulotning standartlash tugrisidagi karorini yfigd kiladi.

Marketing buyicha tekshirish malumki maxsulot sifatini taminlashni tashkil etishdan iborat bulib, standartlash esa sifatni boshkarish elementlaridan biridir. SHuning uchun standartlashtirishni sifatini boshkarishdan va marketingdan ajratib kurib bulmaydi.

CHet el firmalari tajribasi shuni kursatadiki, eng yukori teksnik talab va sifatdagi maxsulotlar va xamma vakt xam rakobatda bula olmaydi. AKSH ning "Artur V Littl" maxsulotli firmasi bergen malumot buyicha yukori teksnik xolat va sifatdagi maxsulotlarni 80% ni ishlab chikarishni takdim etish uchun berilganda ular o‘oki bozor talabiga djavob bermaydi yoki yukori iktisod talab etilgani uchun kullanilmaydi.

Balki 15% yangi teksnologiya kurilmalar xar tomonlama yukori teksnik talabli bulganligi uchun realizatsiya kilinadi.

CHet el firmalari tajribasi shuni kursatadiki eng zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chikarilgan maxsulotlar xam vakti vakti bilan rakobatbardosh bula olmaydi.

«Artur D. Littl» (AKSH) konsultatsion firmasi ma’lumotlariga kura ilmiy maxsulot ishlab chikarish uchun yunaltirilgan yukori darajali zamonaviy texnologiyalarning 80 % yoki narxining yukoriligi yoki bozor strukturasiga javob bermasligi sabab foydalanilmaydi. Fakat 15 % gina yukori texnik darajasiga kura muomalada mavjud. Muomalaga kirayotgan texnologiyalarning asosiy kismi esa shu ishlab chikirishga ixtisoslashtirilgan, yoki ishchi xodimlarning tayyorgarligi va kompleks servisning mavjudligidadir.

Kup chet el firmalari yangi maxsulotlar goyasi marketing bulimlarida ishlab chikilishi kerak deyiladi.

Standartlashtirish va marketing.

O‘z raqibini obdon o‘rganish avvalom bor uni zaif joylarini bilib unga raqobatli kurashshishi uchun, kuchli tomonini bilib o‘z tajribasida qo‘llash zarur. Asosan raqibning moliyaviy holati, ishlab chiqarish va texnik siyosatini, bozor strategiyasini, narx siyosati kabilarni bilish kerak.

Bozor talabini o‘rganishda raqobatni qondira olmaydigan mahsulotlar topilishi, sizga bozorga qanday moslashish kerakligini o‘rgatadi. Natijada “Bozor impulsi” marketing bo‘limidan sifat boshqarmasi xizmatiga o‘tadi.

Raqobatchilar strategiyasini baxolashda, ulardagи reklama, tovar markasi, iste’molchilar uchun berilayotgan xizmat (servis) darajasi ham o‘rganiladi.

Iste’molchiga nisbatan bosim asosan

- muloqot usuli (reklama)
- targ‘ibot usuli (firma stili)
- tovar belgisi

Orqali beriladi.

YUqorida keltirilgan bozor segmentatsiyasisiz yaroqsiz yoki natijasi past hisoblanadi.

Iste’molchi mahsulotlar bozorida iste’molchilar segmenti (guruhi) keyingi asoslarda aniqlanadi:

- geografik faktor
- demografik (aholi soni) faktor
- ijtimoiy-psixologik faktor

Har bir tur u yoki bu faktordan foydalanish maqsadini aniqlaydi.

SHu yo‘sinda ayollar kiyim bozorida ijtimoiy-psixologik faktor xolatni 3-guruhga ajratadi:

- neytral kiyim haridorlari
- ekstravagant ayollar kiyimi haridorlari
- delovoy ayllar kiyimi haridorlari

Alkogolsiz ichimliklar bozori – geografik faktorga ko‘ra,

Avtomobil bozori – aholi daromadi darajasiga qarab, guruhlanadi.

Global marketing maqsadini hisobga olib standartlash-tirishni sentisegmentatsiyalash deb hisoblash mumkin.

SHunday qilib bozorni kompleks o‘rganish sifatning effektli dasturini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Sifatning sistemali boshqaruvi egiluvchan bo‘lishi lozim. Buning zaruriyati “Mahsulot hayoti sikli” ning mohiyatiga ko‘ra talabgar. Ammo yangi texnologik mahsulotlarni (Hi-Tech) standartlashtirish yuqoridagi faktorlar bilan sezilarli kam darajada bog‘liq. CHunki, yangi texnologiyalarning dunyoda yagona monopol holatda ishlab chiqarilishi, texnik yangilikning sanoqli va sekin yaratilishi bu boradagi raqobatni deyarli yo‘qqa chiqaradi.

Standartlashtirishning “tovar hayot sikli” bilan muloqoti.

№	Hayot sikl fazalari	YAngi tovar standartlashtirish darajasi
1	Kirish	Standartlashtirish yo‘q
2	Sotuvning o‘sishi	Past, boshlang‘ich. Asosiy modelning yaratilishi.
3	Etuklik davri	YUqori. Asosiy modelning standartlashuvi.
4	Sinish	Standartlashtirish bo‘yicha ish olib borilmaydi.

Multimilliyl marketing

Multimilliyl marketing –bu butun jahon, umummiliy marketingki iste’molchilarining har xil talablarini hisobga oladi. Tovar stantizartizatsiyasi bu konsepsiyanidan holi, chunki standartlashtirish mahsulotning bozor sharoitida adaptsiya darajasining yuqoriligini talab qiladi.

Ishlab chiqarish rivojlangan mamlakatlar bozorida proekzionizm siyosatining mavjudligi standartni texnik to’siq qilib qo‘yadi. SHundan kelib chiqib, qabul qiluvchi (import) mamlakatlarda iste’mol tovarlari standartlashuvi umummilliyl standart, qoida va normalarga muvofiq yo‘naltiriladi. Uning mosligini import qiluvchi davlatning taqdim qiluvchi talab sertifikati belgilaydi. Milliy normalarning har xilligi muttimilliyl marketing bilan shug‘ullanuvchi firmalarni tovavrlarning alohida modifikatsiyalarini ishlab chiqarishga majbur qiladi.

Global marketingda tovar standartlashgan bo‘lsa ham, xar qanday firma marketing kompleksini tashkil etuvchilarini narx siyosatiga moslashtirishga majbur.

“Proektereng Gembl” firma mahsulotlari ko‘p holda global ammo operatsion marketingda doim moslashgan.

Juda katta darajadagi standartlashuvni global marketingdagi reklamada ko‘rish mumkin.

Reklama standartlashuvi keng tarqalgan tovarlarga xos. Masalan: Malboro, Bifiter. Reklama standartlashuvining yana bir effektli tomoni bu reklama kafolatining boshqa milliy bozorlarda ham qabul qilinishidadir. Bundan tashqari har qanday davlatga qilinayotgan eksport tovar shu davlatga xos bo‘lishi kerak, ya’ni tarjima nuqtai nazaridan. Masalan: “Come alive with Pepsi” angliyskiydan “Voskresni s pepsi” (Pepsi bilan tiril) deb tarjima qilinsa, fransuz tilida “Vo‘yti jivo‘m iz mogilo‘ s pepsi” ko‘rinishida tarjima qilinadi. YOki “Lyuks” (sounlar yulduzi) souni TV reklamasi Fransiyada Marina Vladi, Rossiyada Valeriya yordamida o‘tkaziladi. SHunday qilib standartlashuv

- 1.To‘liq (sigaret Malboro)
- 2.Qisman (soun Lyuks)
- 3.To‘liq milliy moslashgan (poroshok Ariel)

YUqoridan oxirgi ikkitasi multimilliyl marketingga, birinchi holat ega global marketingga misol.

Milliy bozorlardagi adaptatsiya (moslashish) jarayoni reklamaning shu bozorlardagi xosligiga qaraydi. Masalan:

Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, SHvetsiya, Italiyada solishtirma reklama mumkin emas.

SHvetsiyada reklamada bolalarni havfli hollarda ko'rsatish mumkin emas.

Italiyada ovqat eyayotgan bolalarni.

Avstriyada esa bolalarga to'g'ridan to'g'ri munosabat.

Germaniya, Belgiya, Buyuk britaniya, Fransiyada TV va radioda tobak maxsulotlari reklamasi ta'qilangan.

Standartlash va istemollar.

SHtrixli kodlash taklifi 30chi yillarda AQSHning Govard biznes maktabida yaratilgan va 60-yillarga kelib amaliyotda qo'langan.

SHtrixli koddan (SHt.k) keng miqyosda foydalanish 70-yillarga kelib mikrotsessor kashfiyoti bilan bog'liq. 1973y. AQSHda universal tovar kodi (IPC). 1977y. Evropa kod sistemasi (EAN) qabul qilingan.

SHtrix kodи ketma-ket qora (shtrix) va yorqin (probel) chiziqlardan tashkil topgan, uning o'lchamlari qat'iy standart bo'lib, uni faqat skaner (kompterdagи mikroprotsessorning chiziqlarni raqamlarga aylantirish orqali) o'qiy oladi.

Hozirgi davrda 85% mahsulotlar shu kodlash usulidan foydalanishadi. EAN ning 2 hil kodi mavjud bu 13 razryadli va 8 razryadli sonli kod.

Har bir son 2 shtrix va 2 probeldan iborat. 13 razryadli kod – davlat kodи (bayrog'i) firma kodidan tashkil topadi.

Masalan: Rossiya-460, O'zbekiston-478.

Firma kodи 5 sondan iborat bo'lib. Davlat kodidan keyin qo'yiladi. Mahsulot kodining ishlab chiqaruvchining o'zi qo'yadi va uning rasshifrofkasi standart bo'lmaydi.

EAN – 8 kodи unchalik katta bo'limgan upauovkalar uchun mo'ljallangan. U davlat kodи, firma kodи va kontrol raqamidan iborat. Raqam qatori skanerda o'qilmaydi u faqat iste'molchi uchun mo'ljallangan.

SHtrixli kodlash bilan O'zbekistonda (O'zIIPK) shtrixli kodlash manrkazi shug'ullanadi. Markaz respublika firmalariing raqamli kodlanishini EAN sitemasida mustaqil o'rnatishi va ma'lumotlar bankiga kiritish huquqiga ega.

Sinov savollari :

- 1. Maxsus standartlarni tushuntiring.**
- 2. Marketingdagi standartlashlar kanday .**
- 3. Standartlash va istemollar.**

MAVZU-8 : Ekspert auditor faoliyati.

Maksad : Sertifikatlashtirishda ekspert auditor faoliyati, ularga tavsiya etiladigan talablar xamda ekspert auditorlar tayyorlashlar xakida maxlumotga ega bulish.

Reja :

- 1. Ekspert – auditorlar, ularning vazifalari va muayyan talablari.**
- 2. Maxsulotni sertifikatlashtirish buyicha ekspert – auditorga tavsiya etiladigan talablar.**
- 3. Sifat tizimlarining va ishlab chikarishning sertifikatlashtirish buyicha ekspert - auditorga tavsiya etiladigan talablar.**
- 4. Sinov laboratoriylarini akkreditlash buyicha ekspert auditor uchun tavsiya etiladigan talablar.**
- 5. Ekspert – auditor tayyorlash.**

1. Ekspert – auditorlar, ularning vazifalari va muayyan talablari.

Sertifikatlashtirish bilan boglik bulgan faoliyatda faol katnashuvchi shaxs bu ekspert – auditordir. U odatda sifat tizimlarini , ishlab chikarishni va maxsulotni sertifikatlashtirishda sinov laboratoriylarini akkreditlashda va boshka ishlarda katnashish mumkin.

Ekspert- auditor – deb, sertifikatlashtirish soxasida muassasa va korxonalar faoliyatini baxolash va xazorat kilish xukukiga ega bulgan attestatlangan shaxsga aytildi.

Ekspert – auditor sifatida Uz davstandart tomonidan belgilangan tartibda attestatlangan fan, sanoat , maishiy xizmat, institutlar va boshka tashkilotlarning vakillari xamda belgilangan xujjatlar bilan ishlashda etarli chukur bilimga ega bulgan xususiy shaxs xam bulishi mumkin.

Ekspert – auditor kuyidagi vazifalarni bajaradi:

- maxsulot jarayon , xizmatlarni , Sifat tizimlarni va ishlab chikarishni sertifikatlashtirish ;
- Sertifikatlashtirilgan maxsulot jarayon va xizmatlarning tavsiflarini xamda sertifikatlashtirilgan Sifat tizimini va ishlab chikarishning turgunligini nazorat kiladi ;
- Sertifikatlashtirish buyicha akkreditlash idoralari, sinov laboratoriylarini va ularning faoliyatini nazorat kilish ;
- Sertifikatlashtirishda tavsiflar berish ;

Ekspert – auditor uz faoliyatini sertifikatlashtirish milliy idorasi, bir turdag'i maxsulotni sertifikatlashtirish idoralari, Sifat tizimlarini va ishlab chikarishni sertifikatlashtirish doirasida amalga oshiriladi.

Ekspert – auditor muayyan talablarga javob berish lozim :

- tulik oliy ma'lumotli va sertifikatlashtirish soxasida etarli bilimga ega bulib, faoliyati sertifikatlashtirishning ma'lum turi buyicha attestatlangan bulishi kerak;

- Oliy ukuv yurtini tamomlagandan sung kamilda 5 yillik amaliy stajga ega bulishi, shundan kamida 3 yil standartlashtirish, metrologiya, sinovlar, sifatni boshkarish va ta'minlash soxalarida ishlagan bulishi kerak;

Eksper – auditor chukur bilimli tadbirkor bulmogi lozim. U kuyidagi soxalar buyicha bilimlarni mukammal egallagan bulishi shart :

- Respublika sertifikatlashtirish milliy tizimining koida va tartiblari ;
- Sertifikatlashtirish utkazish buyicha bilimlar va me'yoriy xujjatlarni tushunishi ;
- Sertifikatlashtirish va akkreditlash buyicha asosiy ishlar mazmuni ;
- Sertifikatlashtirish va akkreditlash buyicha iktisodiy va xukukiy asoslari ;
- Mamlakat ichidagi va chet ellardagi sertifikatlashtirish va akkreditlash tajribasi ;
- Standartlashtirish, metrologiya va Sifat tizimlarining asoslari ;
- Tekshiruv utkazish va sifatni boshkarishning statistik usullari ;

2. Maxsulotni sertifikatlashtirish buyicha ekspert – auditorga tavsiya etiladigan talablar.

Maxsulotni sertifikatlashtirish buyicha ekspert – auditorlar kuyidagi masalalar buyicha bilimga ega bulishi kerak:

- maxsulotni sertifikatlashtirishning asosiy konun- koidalari tartiblari ;
- sertifikatlashtiriluvchi maxsulotning xossalari, uning konstruksiyalari, ishlab chikarish texnologiyasini birikma va materiallar ;
- sertifikatlashtiriluvchi maxsulotning texnikaviy tavsiflari urganuvchi kursatkichlar, ularni aniklash, usullari, dastavval kullanilgan standartlardagi belgilangan va texnikaviy shrtlar ;
- anik sinovlar va ularning xillari ;
- ishlanma attestatlash, sinov va ulchash uslublarini kullanishi;
- Sinov va ulchash natijalarini kayta ishlash sinovlar natijalarini taxlil kilish, ularning anikligini va xakkoniyligini baxolash usullari;
- Mustaxkamlik, sifat darajasi, pishiklik, ishlatishdagi tasiflarini taxlil kilish, talablarni rad kilish va buzilganligini anilash ;
- Sifatni statistik nazorati uni baxolash usullari ;
- Sinov va ulchash uskunlari , ularni attestatlash, metrologik ta'minlanishi ;
- Ishlab chikarish texnologiyasi , texnologik imkoniyatlar va jixozlanishda ishlash xususiyatlari va vositalari;
- Maxsulotni urash va joylashtirish, belgilash, saklash , etkazib berish va texnikaviy xizmatga bulgan talablar.

3. Sifat tizimlarining va ishlab chikarishning sertifikat-lashtirish buyicha ekspert - auditorga tavsiya etiladigan talablar.

Sifat tizimlarni va ishlab chikarishni sertifikatlashtirish buyicha ekspert- auditorlar kuyidagi masalalar tugrisida bilimlarga ega bulishlari kerak:

- Sifat tizimlari, shu jumladan, Sifat tizimlariga oid standartlar ;
- Maxsulot sifatini va mustaxkamlikni baxolash usullari, xisoblash, tajriba - statistika, natijalarini kayt etish va ekspertlash ;
- Tayyor maxsulot sifatining nazorati, asosiy usullarining turlarini va texnikaviy vositalarni xamda statistik nazorta usullari ;
- Marketing buyicha ishlarni tashkil etish ;

- Loyixalash buyicha ishlarni tashkil kilish va ularga talablar ;
- Material – texnika ta'minoti buyicha ishlarni tashkil kilish ;
- Xom – ashyoning , materiallarning va komplekt etuvchi buyumlarning kiritishdagi nazoratini tashkil kilish ;
- Ishlab chikarish texnologiyasi , ishlash xususiyatlari va texnologik jixozlanish vositalari ;
- Texnologik uskunani texnikaviy xizmati va ta'mirlash ;
- Ishlab chikarishni metrologik ta'minoti buyicha ishlarni tashkil kilish ;
- Tekshirish va sinovlar utkazish buyicha ishlarni tashkil kilish ;
- YUklanish, ortish-tushirish, transport va ombor bilan boglik bulgan ishlarni utkazish va ularga boglik bulgan talablar ;
- Maxsulotni urash va joylashtirish, belgilash, saklash, etkazib berish va texnikaviy xizmatiga bulgan talablar ;
- Sifat tizimlarini iktisodiy tomondan baxolash ;
- Sifat tizimlarida samarali katnashuvchi texnikaviy xodimlarni ishtirokini tashkil kilish va tayyorlash .

1. Sinov laboratoriylarini akkreditlash buyicha ekspert auditor uchun tavsiya etiladigan talablar.

Sinov laboratorlarini akkreditlash buyicha ekspert – auditor kuyidagi masalalar buyicha bilimlarni puxta egallagan bulishi kerak :

- sinaluvchi maxsulotning xossalari, ularning konstruksiyalari, texnologiyasi , ishlab chikilishi, birikma va materiallar tarkibi ;
- anik sinovlar va ularning xillari ;
- ishlanma , attestatlash, sinov va ulchash usullarini kullash ;
- sinov va ulchash uskunalari, ularning ishlatish va texnikaviy xizmati, attestatlash ulchash usullari ;
- sinovlarning metrologik ta'mirlanishi, kullaniladigan ulchov vositalarini kiyoslash (kalibrlash)
- sinov va ulchash natijalarini kayta ishlash, ularning aniklik va ishonchligini baxolash usullari xamda olingan natijalarni taxlil kilish ;
- mustaxkamlikka, sifat darajasiga buladigan talablarni aniklash usullari, sifatni statistik nazorati, sifatni , mustaxkamlikni baxolash usullari, ishlatishdagi tavsiflari, rad etish va shikastlanganligining taxlili ;
- sinov laboratoriyasining malakali xodimlariga nisbatan talablari ;
- sinov natijalarini rasmiylashtirish koidalari ;
- sinov laboratoriyasining xonalariga va undagi sharoitlarga talablar ;
- chet ellardagi uxshash sinovlarning darajasi ;

6. Ekspert – auditor tayyorlash.

Sifatli maxsulotlar etkazib berish, ularni tashki bozordagi xaridorbobligini oshirishda ekspert – auditorlarni tayyorlash muximligini kursatadi.

Ekspert-auditorlarni tayyorlash odatda ikki boskichda olib boriladi : nazariy bilimlarni olish va attestatlash natijasida ularga tegishli xujjatlar topshirish .

Navzariy bilimlarni olishda malakali ukituvchilar xalkaro sertifikatlashtirish soxasidagi ma'lumotlar bilan sertifikatlashtirishga tayyorgarlik kilish va utkazish bilan boglik bulgan ma'lumotlar bilan sertifikatlashtirishda tomonlar va ularning

vazifalari xamda burchlari bilan laboratoriyalarni akkreditlashga boglik bilimlar sertifikatlashtirish faoliyatida metrologik ta'minot ma'lumotlari bilan sertifikatlashtirishning xukukiy normalari va ularga rioya kilishdagi ma'lumotlar bilan maxsulot sifatini yaxshilash va unga ta'sir kursatuvchi omillar bilan keng va xar taraflama tanishtiradi.

Talabalarning nazariy bilimlarini Uz davstandart tomonidan tuzilgan maxsus komissiya baxolaydi. Baxolash natijalari etarli darajada bulsa, ularga sertifikatlashtirish milliy tizimining ekspert – auditori degan guvoxnomasi beriladi (agar attestatlashdan utmasa rad etiladi.).

Ekspert – auditorlar ularga yuklatilgan vazifalari buyicha muayyan burch va ma'suliyatlarga egadirlar. Ular xar bir xatti – xarakatlari uchun konun oldida javobgardirlar.

Ekspert – auditor faoliyati bilan boglik bulgan rasmiy xujjatlar 1 - 6 ilovalarda keltirilgan.

Savol :

- 1. Ekspert – auditor kim ?**
- 2. Ekspert – auditorning vazifasi nima ?**
- 3. Maxsulotni sertifikatlash buyicha ekspert – auditor nimalarni bilishi kerak ?**
- 4. Sifat tizimini sertifikatlashtirish buyicha ekspert – auditor nimalarni bilishi kerak ?**
- 5. Ishlab chikarishni sertifikatlashtirish buyicha esa nimalarni bilishi kerak ?**

MAVZU-9 : Sertifikatlashtirish va maxsulot sifati.

Maksad : Sertifikatsiya uning tizimlarini , sertifikatlantiriluvchi maxsulot ishlab chikarish sharoitlarini tekshirish va sinov laboratoriylarini otkreditlashlar xakida umumiy ma'lumotga ega bulish.

Reja : 1. Sertifikatlashtirish xakida umumiy tushunchalar.

2. Sertifikatlashtirish tizimlari.

3. Sertifikatlashtirishning asosiy sxemalari.

1. Sertifikatlashtirish xakida umumiy tushunchalar.

Sanoat korxonalarida ishlab chikarilaetgan turli xil maxsulotlar muayyan sifat kursatkichiga javob berishi kerak. Bu sifat kursatkich ma'lum berilgan talabga muvofik kelishi lozim. Muvofiklik uz navbatida ma'lum bir standartga yoki boshka me'yoriy xujjatlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiklikni sertifikatlashtirish mumkin.

Sertifikatlashtirish – bu kerakli ishonchlilik bilan maxsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy xujjatga muvofikligini tasdiklaydigan faoliyatdir.

«Sertifikatlashtirish» tushunchasi birinchi marta xalkaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari buyicha maxsus kumitasi tomonidan ishlab chikilib, uning «Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriylarini akkreditlash» soxalaridagi asosiy atamalar va ularning koidalari kullanmasiga kirgizilgan.

Sertifikatlashtirish umumiy amama bulib, maxsulot, texnologik jaraen va xizmatlarning sertifikatlashtirishda uchinchi tomonning katnashishi tushuniladi.

Kullanmaning kayta ishlangan nusxasida muvofiklikni «sertifikatlashtirish» tushinchasi tegishli atamalar guruxiga kiritilgan.

Muvofiklik atamasi maxsulot, jaraen, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya kilishni uz tarkibiga oladi. Bunda muvofiklikning uchta kurinishi mavjud bulib, ular muvofiklik bayonoti, muvofiklikni attestatsiyalash, muvofiklikni sertifikatlashtirishlardir.

Muvofiklik bayonoti , deb etkazib beruvchining maxsulot, jaraen va xizmatlarning anik bir standartga yoki boshka me'yoriy xujjatga tula-tukis muvofiklik xakida butun maxsulotni uz ustiga olganligini bayon etishiga aytildi. Bu atama keyingi yillarda «uz-uzini sertifikatlashtirish» tushunchasi bilan almashtirilmokda . Uz-uzini sertifikatlashtirish deganda maxsulot ishlab chikarib chikaruvchi tomon butun maxsulotni uziga olgan xolda sertifikatlashtirishni uzini utkazadi va maxsulotni kerakli darajada sifatliligi xakidagi kafolatni uz zimmasiga oladi.

Muvofiklikni attestatlash deb, uchungi tomon tarafidan «sinov laboratoriyasining bayonoti» tushunilib, ma'lum namna maxsulotga bulgan talablarni belgilovchi ma'lum standartlar yoki boshka xujjatlar bilan muvofik ekanligini bayon etishiga aytildi.

Sertifikatlashtirish utkazilgan faoliyat natijasida maxsulot sifati xakida iste'molchini ishontiradigan tegishli xujjat – sertifikat beriladi.

Sertifikatlashtirish tizimlari.

Yana bir atama «sertifikatlashtirish tizimi» bulib, u muvofiklikning sertifikatlashtirish faoliyatini utkazish uchun ish tarkibi koidalariga va boshkalarga ega bulgan tizimdir.

«Sertifikatlashtirish tizimi» atamasidan tashkari **«Sertifikatlashtirish sxemasi»** kiritilib, u kuyidagicha tariflanadi : Muvofiklikning sertifikatlashtirilishini utkazishdagi uchinchi tomon faoliyatining tarkibi va tartibi.

Sertifikatlashtirish tizimida uchta tushuncha bulib, ular sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish, sertifikatlashtirish tizimida katnashuvchi va sertifikatlashtirish tizimi a'zosidir.

Sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish deganda sertifikatlashtirish tizimining koidalariga muvofik guvoxnomalariga berilgan sertifikatlashtirishdan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimida katnashuvchi deb ushu tizimning koidalariga binoan faoliyat kursatadigan, lekin tizimni boshkarish imkoniyatiga ega bulmagan sertifikatlashtirish idorasi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimi a'zosi deganda ushu tizimning koidalariga binoan faoliyat kursatadigan va tizimni boshkarishda katnashadigan sertifikatlashtirish idorasi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish ikki xil buladi. majburiy va ixtiyoriy majburiy sertifikatlashtirish deganda sertifikatlashtirish xukukiga ega bulgan idora tomonidan maxsulot , jarayon, xizmatning standartlardi majburiy talablarga muvofikligini tasdiklash tushuniladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda ishlab chikaruvchi, sotuvchi yoki iste'molchi talabi bilan ixtiyoriy ravishda utkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

3. Sertifikatlashtirishning asosiy sxemalari.

Sertifikatlashtirish buyicha ISO (XST) tarkibidagi kumita tomonidan tayyorlangan xujjatda uchinchi tomon tarafidan amalga oshiriladigan sertifikatlashtirishning sakkizta sxemasi berilgan :

Birinchi sxema : Bu sxema bilan fakat maxsulot namunalari turlarini standartlar talablariga muvofikligini maxsus tasdiklangan sinov tashkilotlarida sinovdan utkaziladi. Bu xildagi sertifikatlashtirishda sinovga sinovga takdim etilagn namunani belgilangan talablarga muvofikligi tasdiklanadi, xolos. Bu yul sodda va kam xarajatligi bilan milliy va xalkaro savdo munosabatlarda muayyan darajada tarkalgan.

Ikkinci sxema : Bu sxemada maxsulotning namuna turlarini maxsus tasdiklangan sinov tashkilotlarida sinovdan utkazilib, sungra uning sifatini savdo shaxobchalaridan vakti-vakti bilan olinadigan namunalar asosida nazorat kilib boriladi. Bu usul takdim etilgan namunalar sifatini baxolash bilan seriyali chikaetgan maxsulotning sifatini xam baxolash imkonini beradi.Uning afzalligi soddaligidir. Uning kamchiligi esa nazorat savollar natijasiga karab, agar maxsulot

standart talabiga nomuvofikligi aniklanilsa, baribir uni savdo shaxobchasiдан chikarib tashlash mumkin bulmaydi, yoki chikarish birmuncha kiyinchilik tugdiradi.

Uchinchi sxema : Maxsulot namunalarining turlarini maxsus tasdiklangan sinov tashkilotlarida utkazish, sungra sotuvchi yoki iste'molchiga yubormasdan turib vakti – vakti bilan namunalarning tekshiruvchini nazorat kilishga asoslangan. Ikkinci sxemadan farki shuki maxsulot savdo shaxobchalariga tushmasdan turib, sinov nazorati utkaziladi va standartga nomuvofikligi aniklansa, maxsulotning istemolgaga junatilishi tuxtililadi.

Turtinchi sxema : Maxsulot namunalarining turlarini xuddi 1 – 3 – sxemalardek sinovdan utkazishga asoslangan bulib, sungra savdo shaxobchasiдagi xamda ishlab chikarishdan olingen namunalarning tekshirish nazorati vakti – vakti bilan utkazish orkali maxsulotning sifati xisobga olinadi. Bu xolda maxsulot ishlab chikarilgan bulib, uning chikarilishiga ma'lum xarajatlar bulgandan keyin standart talablariga nomunovikligi aniklansi.

Beshinchi sxema : Bu sxema maxsulot namuna turlarini tasdiklangan sinov tashkilotlarida utkazishga va maxsulot ishlab chikarishning sifatini baxolashga asoslangan bulib, sungra savdo shaxobchasiда va ishlab chikarishda namunalar sifatini vakti – vakti bilan tekshirilib nazorat kilib boriladi. Bu sertifikatlashtirish usuli fakat maxsulotning sifatini nazorat kilibgina kolmay, balki korxonada chikaziladigan maxsulotning sifatini kerakli darajada bulishini xam nazorat kiladi.

Ushbu usul sanoati rivojlangan mamlakatlarda xamda xalkaro sertifikatlashtirish tizimlarida eng kup tarkalgan sxemadir. Bu sxema 1 – 4 – sxemalarga karaganda eng murakkab va nisbatan kimmatrok turadigan sxema bulib, uning afzalligi iste'molchi maxsulot sifatini yukori ekanligiga ishonch xosil kiladi.

Oltinchi sxema : fakat korxonadagi maxsulotning sifatini ta'minlash bilan tizimni baxolanishini utkazishga muljallangan. Bu usul ayrim vaktida korxona - tyyorlovchini attestatlash deb xam yuritiladi. Bu xil sertifikatlashtirishda fakat korxonaning belgilangan sifat darajadagi maxsulotni chikarish kobiliyati baxolanadi.

Ettinchi sxema: Maxsulotning xar bir tayyorlangan tudasidan sinovlarga tanlab olishga asoslangan. Tanlab olish sinovlarining natijalariga karab tudani ortish uchun karor kabul kilinishi aniklansi. Bu xildagi sertifikatlashtirish uchun tanlanmagan xajmi aniklanshi lozim, bu esa tayyorlangan tudaning katta kichikligiga makbul buladigan sifat darajasiga boglik. Kabul kilingan koidalarga asosan tanlanmani tuplash vakolatlangan tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sakkizinchi sxema: Xar bir tayyorlangan, ayrim buyumning standartlar talabiga muvofikligi sinovlar utkazib, aniklashga asoslangan sertifikatlashtirish usulida yukorida 1 – 7 – sxemalariga karaganda ta'minlovchining ma'suliyati ancha yukori . Tabiyki muvoffakiyatli sinovlardan utgan buyumlargina sertifikat yoki muvofiklik belgisini oladi. 8 – sxema maxsulotga nisbatan yukori va kat'iyrok talablar kuyilganda ishlatilishiga asoslangan yoki maxsulotning

ishlatilishi natijasida standart talablarga mos kelmasligi iste'molchiga katta iktisodiy zarar etkazganida kullaniladi. Bu xil sertifikatlashtirish kimmat baxo metallardan va kotishmalardan tayyorlanadigan buyumlarda kuprok kullaniladi. Bundan asosiy maksad kimmat baxo metallarning belgilangan mikdori, tarkibi va buyumning tozaligini tekshirishdir.

- Savol :**
- 1. Sertifikatlashtirish tushunchasi nima ?**
 - 2. Muvofiklik nima ?**
 - 3. «Sertifikatlashtirish tizimi» deb nimaga aytiladi ?**
 - 4. Majburiy sertifikatlashtirish nima ?**
 - 5. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish nima ?**
 - 6. Sertifikatlashtirishning nechta sxemasi mavjud ?**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI**



**“METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH
VA SETIFIKATLASHTIRISH”
o‘quv fanidan**

**O‘QUV MATERIALLARI (MA’RUZA MATNI,
O‘QUV QO‘LLANMA)**

Ushbu uslubiy ko‘rsatma asosida «Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish » fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarishsh bilan talabalar elektr zanjirlarning ulanish usullarini, zanjirdagi elektr o‘lhash asboblarining ulanishi, tuzulish mexanizmlarini, ishlash printsiplari va ularning xatoliklari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladilar. SHu bilan bir qatorda o‘zgarmas tok ko‘prigi, potentsiometrning ishlash prinsiplarini hamda plotnometrler yordamida suyuqlik zichliklarini o‘lhashni ham o‘rganadilar. Mazkur uslubiy ko‘rsatma 5310200 “Elektr energetikasi” ta’lim yoo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Kirish

Elektr zanjirlarini tuzish va bu zanjirlar xarakteristikalarini aniqlash uchun avvalo o‘lhash asboblarining ulanishi, ularning xatoliklarini va mexanizmlarini o‘rganish lozimdir.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma asosida «Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish» fanidan amaliy mashgo‘ulotlarni bajarish bilan talabalar elektr zanjirlarning ulanish usullarini, zanjirdagi elektr o‘lhash asboblarining ulanishi, tuzulish mexanizmlarini, ishslash printsiplari va ularning xatoliklari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladilar. SHu bilan bir qatorda o‘zgarmas tok ko‘prigi, potensiometrning ishslash printsiplarini hamda plotnometrler yordamida suyuqlik zichliklarini o‘lhashni ham o‘rganadilar.

Bu uslubiy koo‘rsatma 5310200 “Elektr energetikasi” yo‘nalishi talabalari uchun «Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish» fanini boo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun tavsiya etiladi.

ELEKTR O'LHASH ASBOBLARINI HISOBLASH.

Ishning maqsadi

Elektr oo'lhash asboblari, ularning o'lhash xatoliklari va usullari hamda mexanizmlarini o'rganish.

Nazariy qism.

Elektr miqdorlarini oo'lhash uchun belgilangan asboblar **elektr o'lhash asboblari (EO'A)** deb ataladi. Hozirgi vaqtida EO'A larining turlari nihoyatda ko'p, binobarin, ularga qo'yiladigan talablar, ishlatalish sharoiti, tuzilishi va boshqa ko'rsatkichlari xilma-xil bo'lganligi uchun ham ularni quyidagicha tasniflash (klassifikatsiyalash) mumkin:

1. O'lchanadigan miqdorlarni o'lhash usuliga qarab, EO'Alari bevosita baholaydigan (ko'rsatadigan) va solishtirib o'lchaydigan asboblarga bo'linadi.

Oldindan darajalab qo'yilgan va o'lchanadigan miqdorni bevosita asbobning darjasini boo'yicha hisoblashga imkon beruvchi EO'A **bevosita baholaydigan (oo'rsatadigan) asbob** (ampermestr, voltmetr, vattmetr, fazometr, chastotametr va hokazo) deb ataladi.

O'lchanayotgan miqdor qiymatini uning oo'lchovi bilan solishtirish natijasida olinadigan EO'A **solishtirib oo'lchaydigan asbob** (o'lhash ko'prigi, potentsiometr va kompensator va hok.) deb ataladi.

2. EO'A lari ma'lumotlarini ko'rsatishlariga qarab, bevosita ko'rsatadigan (analogli), raqamli, qayd qiluvchi, o'zi yozuvchi, bosmalovchi, integrallovchi va jamlovchi kabi turlarga bo'linadi.

Bevosita ko'rsatadigan (analogli) EO'A o'lhash kattaliklari (miqdorlari) o'zgarishini uzluksiz funksiya bilan aks ettiradi.

Raqamli EO'A o'lhash axborotini avtomatik ravishda uzuq-uzuq (uzlukli-diskret) ishoraga aylantiriladi.

Koo'rsatuvchi EO'A o'lhash natijasini uning ko'rsatishidan hisoblab olish uchun xizmat qiladi.

Qayd qiluvchi EO'A o'lhash kattaligin qayd qilish imkoniga ega.

O'zi yozar EO'A. Koo'rsatishini diagramma ko'rinishida yoza oladigan qayd qiluvchi asbob o'ziyozar EO'A deb ataladi.

Integrallovchi EO'A_berilgan kattalikni vaqt yoki mustaqil o'zgaruvchi ko'rsatkich bo'yicha integrallash xususiyatiga ega. Masalan: elektr energiya hisoblagichi.

Jamlovchi EO'A ko'rsatishini unga har xil yo'llar (kanallar) orqali berilgan ikki yoki bir necha kattaliklarning funksional yig'indisiga bog'liq holda ishlataladi. Bunga bir necha generator quvvati yig'indisini o'lhash uchun mo'ljallangan asbob vattmetr misol bo'ladi.

3. **EO'A** lari ishlatalishiga qarab elektr, mexanik, issiqlik, kimyoviy, biologik va boshqa noelektr miqdor (kattalik) larni o'lchaydigan asboblarga bo'linadi.

4. ***EO‘A*** ishlatilish xususiyatiga ko‘ra ko‘chma va ko‘chirib yurilmaydigan (statssionar) asboblarga bo‘linadi.

O‘lhash texnikasi xalq xo‘jaligining hamma tarmoqlarida fan va texnika taraqqiyotini ilgari suruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalarни o‘zaro taqqoslamay turib, ularni ilmiy jihatdan asoslab bo‘lmaydi. Bunda o‘lhash texnikasining bir tarmog‘i bo‘lgan elektr o‘lhash texnikasi katta ahamiyatga ega.

Elektr o‘lhash texnikasi yordamida amalda ma’lum bo‘lgan barcha fizik miqdorlar, ya’ni elektrik va noelektrik miqdorlarni, o‘zgarmas va vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan miqdorlarni keng ko‘lamda va uzoq masofadan o‘lhash mumkin. SHuning uchun ham elektr o‘lhash usullari xilma-xildir. Elektr o‘lhash asboblarga bevosita baholash usuli va taqqoslash usullari kiradi.

Agar o‘lchanadigan kattalikning qiymati oldindan darajalab qo‘yilgan o‘lhash asbobining hisoblash qurilmasidan bevosita olingan bo‘lsa, bunday o‘lhash bevosita baholash usuli deyiladi. Masalan, tok kuchini o‘lhash ampermetr bilan, kuchlanishni o‘lhash voltmetr bilan, quvvatni o‘lhash vattmetr bilan olib boriladi va h.k.

Agar o‘lchanadigan kattalikning qiymati o‘lchov namunasi bilan solishtirib aniqlansa, bunday o‘lhash usuli taqqoslash usuli deyiladi. Taqqoslash usuli o‘z navbatida nol differentials, almashtirish va ustma-ust tushirish usullariga bo‘linadi. Taqqoslash usuliga ko‘priksimon zanjirlardagi qarshilik, sig‘im va induktivliklarni yoki potensiometrlardagi kuchlanish va elektr yurituvchi kuchlarni o‘lhash usullari misol bo‘la oladi. Amalda taqqoslash usullaridan nol va differentials usullari keng qo‘llaniladi.

Nol usulda o‘lchanayotgan kattalikning qiymati namuna o‘lchov bilan solishtirishda hosil bo‘lgan farq nolga tenglashguncha o‘zgartirilib boriladi. Bunga potensiametrda kuchlanishni muvozanat ko‘priksimon zanjirlarda qarshilikni o‘lhashlar misol bo‘la oladi. Solishtirish farqi solishtirish asbobida yoki nol indikatorda kuzatiladi. Nol o‘lhash usuli juda aniq o‘lhash usulidir. CHunki bunday o‘lhashda yuqori aniqlikli namuna o‘lchovi va sezgirligi yuqori taqqoslash asbobi, masalan, galvonometr ishlatiladi.

Differentsial usulda o‘lchanayotgan kattalikning qiymati namuna o‘lchov bilan taqqoslanadi va hosil bo‘lgan farq oddiy elektr o‘lhash asbobi bilan o‘lchanadi. Differentsial usul bir-biridan kam farq qilgan ikkita miqdorni taqqoslash va o‘lhash uchun ishlatiladi. SHuning uchun xam bu usulning o‘lhash aniqligi yuqoridir. Masalan ikki miqdorning farqi 1 % ga teng bo‘lib, bu farq 1,5 % xatolik bilan o‘lchansa, u holda o‘lchanadigan miqdor 0,015 % xatolik bilan o‘lchanadi.

YUqorida ko‘rib chiqilgan usullarning qaysi biridan foydalanmaylik, o‘lhash natijalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita olish mumkin.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) o‘lhash - bu o‘lchanuvchi miqdorni to‘g‘ridan- to‘g‘ri tajribadan, ya’ni bevosita o‘lhash asbobining ko‘rsatishidan olinadigan natijadir.

Bilvosita o‘lhash - bu aniqlanishi lozim bo‘lgan miqdorni shu miqdorni va bevosita o‘lhash mumkin bo‘lgan miqdorlarni o‘zaro bog‘lovchi ma’lum ifodadan

topishdir. Masalan, kuchlanishni voltmetr va tokni ampermestr yordamida o'lchab, qarshilikni topishdir. Ba'zi xollarda, ayniqsa, ilmiy tekshirish ishlarida o'lchash natijasi o'lchanuvchi miqdor bilan tenglamalar orqali bog'langan bir qancha miqdorlarni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita o'lchab, so'ngra tenglamalarni echish orqali topiladi va bunday o'lchash birlikdagi o'lchash deb ataladi. Bunga materiallar qarshiliklarining temperatura koefitsientini topish misol boo'ladi.

2. Har qanday o'lchashda o'lchash natijasi o'lchanayotgan miqdorning xaqiqiy qiymatidan bir oz farq qilishi ***o'lchash xatoligi*** deb ataladi. Ba'zan o'lchash natijasini baholashda "o'lchash aniqligi" dan foydalilaniladi. O'lchash aniqligi o'lchash natijasining haqiqiy miqdoriga qanchalik yaqinligini ko'rsatadi. YUqori ko'rsatish aniqligining yuqori bo'linishiga o'lchash xatosi kichik bo'lganida erishiladi.

O'lchangan miqdor (A_u) bilan o'lchanayotgan miqdorning haqiqiy qiymati (A_x) orasidagi ayirma o'lchashdagi absolyut xatolik deb ataladi va (bilan belgilanadi, ya'ni:

$$\Delta = A_u - A_x$$

Absolyut xatoning o'lchanayotgan miqdorning haqiqiy qiymatiga nisbati o'lchashdagi ***nisbiy xatolik*** deb ataladi va bilan belgilanadi, ya'ni:

$$\beta = \frac{\Delta}{A_x} \cdot 100 \% \quad (1)$$

Agar o'lchangan miqdor o'lchanayotgan miqdorning haqiqiy qiymatidan katta bo'lsa, o'lchashdagi nisbiy xatolik musbat va aksincha, kichik bo'lsa, manfiy bo'ladi.

Agar (1) formuladagi Δ o'rniiga $\frac{\gamma A_{\max}}{100 \%}$ ni quysak, nisbiy atolik qo'yidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\beta = \frac{\gamma A_{\max}}{A_x}$$

Demak, o'lchanayotgan miqdor asbobning o'lchash chegarasi (A_{\max}) ga yaqin bo'lsa, o'lchashdagi nisbiy xatolik asbobning keltirilgan xatosi γ ga yaqin bo'ladi.

Masala. O'lchash chegarasi 10 A, aniqlik sinfi 1,5 bo'lgan ampermestr bilan bir safar 1 A, ikkinchi safar 10 A tok kuchi o'lchandi. SHu ampermetrning o'lchash xatoligini solishtiring.

Echish. eng katta nisbiy xatolik qo'yidagi qiymatlarga teng bo'ladi

$$\begin{aligned} \beta_1 &= \frac{\gamma A_{\max}}{A_x} = \frac{1,5 \cdot 10}{1} = 15 \% \\ \beta_2 &= \frac{\gamma A_{\max}}{A_x} = \frac{1,5 \cdot 10}{10} = 1,5 \% \end{aligned}$$

Xatoliklarning o'zgarish xarakteriga qarab ularni davriy va tasodify xatoliklarga ajratish mumkin.

Davriy xatolik - bu bir xil miqdorlarni qayta o'lchaganda o'z qiymatini yoki o'zgarish qonuniyatini o'zgartirmaydigan xatolikdir.

Tasodifiy xatolik - bu bir xil miqdorlarni qayta o‘lchaganda o‘z qiymatini biror qonuniyatga bo‘ysunmagan xolda tasodifiy o‘zgartiruvchi xatolikdir.

Umuman o‘lhash xatoligiga bir qancha sabablar ta’sir kursatadi. Bularga asbobni o‘lchanayotgan miqdorning diapozoniga, asbobning o‘zi qabul qiladigan quvvatga, sezgirlingiga nisbatan noto‘g‘ri tanlash, asbobni noto‘g‘ri ishlatish, o‘lhash sistemalarini noto‘g‘ri tanlash va boshqalar kiradi.

Davriy xatolik o‘z navbatida o‘zgarmas va o‘zgaruvchan xatoliklarga bo‘linadi. Qayta o‘lchaganda o‘z qiymati va ishorasini o‘zgartirmaydigan xatolikka ***o‘zgarmas davriy xatolik*** deyiladi.

Bunga misol tariqasida o‘lhashda qo‘llaniladigan o‘lchovning xaqiqiy qiymati yuqori aniqlik bilan o‘lchanmaganligini keltirish mumkin. Ma’lum qonuniyat bilan o‘zgaruvchi xatolikka esa ***o‘zgaruvchan davriy xatolik*** deyiladi. Agar o‘lhash natijasi kuchlanishga bog‘lik bo‘lsa, akkumulyatorning zaryadsizlanishidagi kuchlanishning bir tekis kamayishi o‘zgaruvchan davriy xatolikka misol bo‘la oladi. Davriy xatolik keltirib chiqargan sabablarni aniqlab, tuzatish kiritish orqali mazkur xatolikni kamaytirish yoki butunlay yo‘q qilish mumkin.

Agar davriy xatolik tasodifiy xatolikdan kichik bo‘lsa, bir xil miqdorni o‘lhashda uni bir necha bor o‘lhab, o‘lhash natijasi sifatida ularning o‘rtacha qiymatini olish maqsadga muvofik, ya’ni

$$A_{yp} = \frac{A_1 + A_2 + A_3}{n}$$

bunda A_1 q A_2 q ... q A_n - har bir o‘lhash natijasi, n-o‘lhashlar soni. O‘lhashlar soni katta bo‘lganda Aur o‘lchanayotgan miqdorning haqiqiy qiymatiga yaqinlashadi. Bilvosita o‘lhashda ikkita va undan ortiq o‘lhash asboblaridan foydalaniladi. Bu holda bilvosita o‘lhashdagi xatoli bevosita o‘lhashdagi xatolikning algebraik yig‘indisi shaklida yozib, topiladi.

Normal ish sharoitlarida aniqlangan keltirilgan xatolik asbobning ***asosiy xatoligi*** deb ataladi. Asosiy xatolik buyicha bevosita baholaydigan asboblar davlat standarti buyicha 8 ta aniqlik sinfiga ajratiladi: 0,05; 0,1; 0,2; 0,5; 1,0; 1,5; 2,5 va 4. Ular o‘lhash asboblarining shkalalarida ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Aniqlik sinfini bildiruvchi raqam asosiy eng katta joiz keltirilgan xatolikni bildiradi. Masalan , asbobning aniqlik sinfi 0,2 bo‘lganda γ q q0,2% bo‘ladi.

Qo‘srimcha xatoliklar asbob ishslash sharoitlarining normal sharoitlar (muhit temperaturasi, ishchining normal holati, o‘zgaruvchan tokning kuchlanishi va chastotasi)dan chetga chiqishi oqibatida kelib chiqadi. Tashqi magnit va elektr maydonlarining mavjudligi ham o‘lhashda qo‘srimcha xatolikni vujudga keltiradi.

Ishlatish sharoitga qarab elektr o‘lhash asboblari quyidagi turkumlarga bo‘linadi: A (temperatura oraligi q10⁰ dan q35⁰ S gacha; muhitning nisbiy namligi 80 % gacha); B (-30⁰ dan q 40⁰ gacha; 90 % gacha); B (- 40⁰ dan q 50⁰ S gacha; 95 % gacha); B₁ (- 50⁰ dan q 60⁰ S gacha; 95 % gacha), B₂ (- 50⁰ dan q 80⁰ S gacha; 98 % gacha)

Tropik iklim sharoitida ishlatishga mo‘ljallangan elektr o‘lhash asboblarida "T" belgisi quyiladi.



Asbobning sezgirligi o'lchash asbobining chiqish qismidagi signal uzgarishi (Δl) ning kirish qismidagi signal uzgartiruvchi (ΔX)ga nisbatidir:

$$S = \frac{\Delta l}{\Delta x}$$

Asbobning sezgirligi o'lchanayotgan miqdorlar birligiga mos keluvchi shkalaning bo'linmalari soni bilan aniqlanadi.

Asbobning tez ishlay olishi. O'lchanayotgan miqdorlar o'zgarganda asbobning quzgaluvchan qismi (strelka) biror muvozanat holatdan ikkinchi muvozanat holatga o'tadi. Strelkaning shkala uzunligi bo'yicha 1% dan oshmagandagi tebranish amplitudasi uchun ketgan vaqt oraligi tinchlanish vaqt deb ataladi. Barcha o'lchash asboblari tinchlantirgichlar (dempferlar) bilan ta'minlanadi. Tinchlanish vaqt 4 - 6 sekunddan oshmasligi kerak.

I. Aytaylik, R qarshilikli zanjirdagi tokni o'lchash talab qilinsin (1.1 -rasm).



Ampermetr bo'lmaganda zanjirdagi tok $I = \frac{U}{R}$. Ampermetr ulanganda (rubilnik ajratilgan) $I' = \frac{U}{R + r_A}$. Ushbu formulalardan ko'rindaniki, $I \neq I'$ ya'ni $I' < I$. I' tok

I ga tenglashishi uchun r_A nol qiymatgacha kamayishi kerak. SHunda $P_A = I'^2 \cdot r_A \rightarrow 0$. Agar r_A qanchalik kichik bo'lsa, o'zi iste'mol qiladigan quvvat shuncha kichik bo'ladi va ampermetrning o'lanishidan hosil bo'ladigan xatolik ham kichik bo'ladi.

II. Kuchlanishi $U = 300$ V bo'lgan zanjirga (1.2-rasm) ikkita qarshilik $R_1 = 20$ kOm va $R_2 = 10$ kOm ulangan. Voltmetr ulanmagandagi kuchlanish $U_{ab} = 100$ V. qarshiligi $r_V = 10$ kOm bo'lgan voltmetr a va b no'qdalarga kuchlanishni o'lchash uchun ulangan a va b nuqtalar orasidagi kuchlanish aniqlansin. U holda

$$R_{ab} = \frac{R_2 \cdot r_V}{R_2 + r_V} = \frac{10 \cdot 10}{10 + 10} = \frac{100}{20} = 5 \text{ kOm}$$

$$U'_{ab} = \frac{U}{R_1 + R_{ab}} \cdot R_{ab} = \frac{300}{20 + 5} \cdot 5 = 60 \text{ V}$$

Asbobning daraja qiymati. Asbobning sezgirligi teskari bo'lgan kattalik asbobning daraja qiymati deyiladi.

$$C = \frac{1}{S} = \frac{\Delta x}{\Delta n} \quad (2)$$

Axbobning daraja qiymati ko‘rsatgichni bir xonaga ko‘chiruvchi o‘lchanuvchi kattalikka teng.

$$C = \frac{\Delta I}{\Delta n} = \frac{2,5 A}{50 \text{ bul}} = 0,05 \frac{A}{\text{bul}} \quad (3)$$

Masalan: 2,5 A tokni o‘lchashda asbob strelkasi 50 xonani (bo‘lakni) ko‘rsatsa, asbobning tokka sezgirligi daraja kiymati:

$$S = \frac{\Delta n}{\Delta I} = \frac{50 \text{ bul}}{2,5 A} = 20 \frac{\text{bul}}{A}$$

Axbobning shkalasi o‘lchanayotgan kattalikni hisoblashga mo‘ljallangan. SHkaladagi yozuv ko‘pincha o‘lchanayotgan kattalikni bildiradi. Ba’zan u shkala boshidan olingan xonalar sonini bildiradi. Teng xonali shkalada asbobning darjasini (bir xonasining qiymati) qo‘yidagicha aniqlanadi:

$$C = \frac{A_{\max}}{N}; \quad (4)$$

A_{\max} -asbobning strelkasi eng katta qiymat olgandagi o‘lchanayotgan kattalik miqdori. N - asbob shkalasidagi xonalarning umumiy soni.

Asbob o‘zgarganda uning strelkasi ko‘rsatayotgan, o‘lchanayotgan kattalik miqdori : $x = C \cdot n$ (6) formulaga asosan aniqlanadi.

Bu erda X – qidirilayotgan kattalik. n – shkaladagi xonalar soni.

Tekis bo‘lmagan (teng xonali bo‘lmagan) shkalada xonalarning darajalanishi har-xil bo‘ladi. Bu holda asbobning darjasini (4) ga asosan topiladi. Elektr o‘lchov asbobida bir nechta o‘lchash chegarasi bo‘lishi mumkin, bunday asboblarga **ko‘p chegarali asboblar** deyiladi. Asbobning kuydirib quymaslik maqsadida ularni eng katta chegarasiga qo‘yib zanjirga o‘lanadi. Ko‘p chegarali asboblarni ishlatishda har bir chegara uchun alohida daraja qiymati aniqlangani ma’qul bo‘ladi.

Masalan, voltmetr 0 dan 15 v gacha va 0 dan 30 v gacha o‘lchash chegarasiga ega bo‘lsin. Umumiy xonalar soni 150 bo‘lsa, daraja qiymati:

$$\text{Birinchi holda} \quad C = \frac{15 V}{150 \text{ bo‘l}} = 0,1 \frac{V}{bo‘l} \quad (5)$$

$$\text{Ikkinchi holda} \quad C = \frac{30 V}{150 \text{ bo‘l}} = 0,2 \frac{V}{bo‘l} \quad (6)$$

Asbobning aniqlik sinfi va elektr o‘lchovlarining xatosini baholash. Agar asbob hujjatida ko‘rsatilgan qoidaga asosan ishlatilsa, uning aniqligi ko‘rsatilgan sinfga mos keladi. O‘lchashdagi absalyut xatoligini sinfidan foydalanimi aniqlanadi .

Aniqlik sinfi deb asbobning maksimal ko‘rsatishiga nisbatan olingan eng katta yoo‘l quyiladigan xatolikka aytiladi.

$$\gamma = \frac{\Delta A}{A_{\max}} \cdot 100 \% \quad (7)$$

Bu erda ΔA - aniqlik darjasini (xatoligi) maksimal absolyut xatoligi.

A_{\max} - asbobning o‘lchov chegarasi.

Aniqlik xossasiga qarab asbobning o‘lchashlaridagi absolyut xatoligini topish mumkin. Absolyut xatolik asbobning butun shkalasi bo‘yicha bir xil deb hisoblanadi (7) tenglikga asosan absolyut xatolik

$$\Delta A = \gamma \frac{A_{\max}}{100} ; \quad (8)$$

bo‘ladi .

Nisbiy xatolik a) 0,5 C dan

$$\varepsilon = \frac{\Delta A}{A} \quad \text{yoki} \quad \varepsilon = \frac{\Delta A}{A} 100 \% \quad (9)$$

A_x —o‘lchanaetgan kattalik (7) ga asosan (8) ni qo‘yidagicha yozish mumkin :

$$\varepsilon = \gamma \frac{A_{\max}}{A_x 100} 100 \% \quad \text{yoki} \quad \varepsilon = \gamma \frac{A_{\max}}{A_x} ; \quad (10)$$

b) agar 0,5 A bulsa nisbiy xatolik

$$\varepsilon = \gamma \frac{0,5 C}{A_x} \quad \varepsilon = \gamma \frac{0,5 C}{A_x} 100 \% \quad (11)$$

A_x – qancha kichik bo‘lsa, nisbiy xatolik shuncha katta bo‘ladi. Biror kattalikni o‘lchashda ikkinchi yarim shkaladan foydalanilsa xatolik kam buladi. Bu holda asbobning aniqligi yaqin bo‘ladi. O‘lchashlarda asbobning maksimal ko‘rsatishini taxminan 70–80% ni tashkil etadigan kattaliklarni o‘lhash maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni xatolik bu holda kam bo‘ladi. SHuning uchun amalda ko‘p chegarali asboblardan foydalaniladi.

Bunday asboblar ishlatilganda asbobning o‘lhash chegarasi o‘lchanayotgan kattalikka yaqin holatda qo‘yiladi.

Elektr ulchash asboblaring mexanizmlari.


elektr o‘lchov asboblaring asosiy qismlari undagi o‘lhash zanjiri va o‘lhash mexanizmidir (O‘M). O‘M qo‘zgalmas va qo‘zgaluvchan qismlardan iborat. O‘M chulg‘amidagi tokning qo‘zgalmas qismining magnit (eki elektr) maydoni bilan ta’sirlashishi natijasida mexanizmning quzg‘aluvchi qismi suriladi.

Aylantiruvchi moment M_{ayl} teskari ta’sir ko‘rsatuvchi moment M_{tes} bilan muvozanatda bo‘lganda ko‘zg‘aluvchi qism strelka bilan bиргаликда o‘lchanayotgan kattalik qiymatiga mos keladigan aniq holatni egallaydi. O‘lhashi asboblardagi teskari ta’sir ko‘rsatuvchi moment ko‘pincha prujinalar, tortqilar yordamida hosil qilinadi.


Quzg‘aluvchan qismning surilishi muvozanat holatda bo‘lishi momentlarning tengligi $M_{ayl} = M_{tes}$ bilan ifodalanadi.

Asosiy elektromexanik o‘lhash mexanizmiga magnitoelektrik, elektromagnit, elektrodinamik va induktsion mexanizmlar kiradi.

Magnitoelektrik mexanizm. Qo‘zgaluvchan ramkali magnito-elektrik o‘lhash mexanizmlari tashqi va ramka ichidagi magnitli ko‘rinishlarda bajariladi. Ikkinchi xildagisi asbobning 80 % dan ko‘progiga o‘rnatalidi.



1.3.-rasm



1.4.-rasm

Ichki ramkali magnitli mexanizmlarda (1.3-rasm) uzak vazifasini o‘zgarmas magnit 1 bajaradi. Uni yumshoq po‘latdan yasalgan halqasimon magnit o‘tkazgich 3 urab turadi. Havo oralig‘ida (zazorida) bir tekst real magnit maydoni hosil qilish uchun yumshoq po‘latdan yasalgan qutb uchliklari 2 xizmat qiladi.

Quzg‘aluvchan g‘altak 4 tortki yoki tayanchlarga o‘rnatilgan bo‘lib, uzakka nisbatan 90° ga bo‘rilishi mumkin. G‘altak engil alyumin karkasga uralgan yoki karkassiz izolyatsiyalangan simdan iborat.

Teskari ta’sir ko‘rsatuvchi moment hosil qiluvchi va quzg‘aluvchi g‘altakka tok o‘tkazuvchi tortqilar (prujina yoki osmalar) chulg‘am uchlariga o‘langan. Magnitoelektrik mexanizmning ishlash printsipi o‘zgarmas magnit maydoni bilan tokli o‘tkazgichlarning o‘zaro ta’siriga asoslangan. Aylantiruvchi moment M_{ayl} elektromagnit kuchlar qonuni asosida aniqlanadi. Bunda har bir o‘tkazgichga ta’sir etuvchi kuch.

f q VII

bu erda l -o‘tkazgichning aktiv uzunligi. G‘altakning W urami ikkita aktiv tomoniga ega. Elkaga quyilgan kuchlar g‘altak kengligi b ning yarmiga teng (1.4-rasm).

Demak aylantiruvchi moment:

$$M_{ayl} = \frac{1}{2} \int W(b/2) q B I b l W$$

Agar $l = bqS$ g‘altak yuzasi bo‘lsa, u holda

$$M_{ayl} = qWBI S qc_1 I$$

Teskari ta'sir ko'rsatuvchi moment M_{tes} tortqilarning prujinalarning buralishidan hosil bo'ladi va ularning buralish proportionaldir:

$$M_{tes} q \ c_2 \alpha$$

bunda s -prujinaning bukrlik koeffitsienti.

Momentlar tenglashganda $M_{aylq}M_{tes}$ yoki $s_l I q c_2 \alpha$ strelka surilishdan to'xtaydi. Tortqi yoki spiral prujinalarning buralish burchagi bir vaqtda asbob strelkasining surilish burchagi hamdir. Demak strelkaning burilish burchagi:

$$\alpha = \frac{c_1}{c_2} I = cI$$

Qo'zg'aluvchan qismning burilish burchagi o'lchanaetgan tokka to'g'ri proportionaldir. SHuning uchun magnitoelektrik asboblarning shkalasi tekisdir, bu esa asbobning afzalligi hisoblanadi.

Asbob chulg'ami engil aliymin karkasga o'ralgan bo'lib, qisqa tutashgan o'ramdan iborat. Karkas (yoki asbobning karkassiz chulg'ami) o'zgarmas magnit (N-S) ning magnit maydonida burilganda unda uyurma tok induktsiyalanib, uning yunalishi Lents printsipiga asosan karkas (chulg'am) bo'rilihiga teskari ta'sir ko'rsatadi. Bunday uyurma toklar magnit oqimi bilan o'zaro ta'sirlashib, tinchlaniruvchi momentni hosil qiladi va chulg'amli karkasning (chulg'amning) tezda tinchlanishini ta'minlaydi (magnit induktsionli tinchlaniruvchi).

Magnitoelektrik asboblarda, asosan, karkasli tinchlaniruvchi qo'llaniladi. Karkassiz ishlab chiqarilayotgan mikroampemetrlardagi tinchlaniruvchi chulg'amlidir.

Qo'zg'aluvchan g'altak 150-200 mA tokka mo'ljallab tayyorlanadi, chunki tok qiymatining yuqori bo'lishi teskari ta'sir ko'rsatuvchi momentni hosil qiluvchi g'altakka tok uzatuvchi tortqilar yoki spiral prujinalarning qizishini oshiradi. SHkalasi notebs bo'lgan boshqa sistemadagi asboblarni ko'p o'lhash chegarali, aniqlik sinfi yuqori qilib tayyorlash qiyindir.


Aylantiruvchi moment yoo'nalishi g'altakdagi tok yoo'nalishiga bog'liqdir. Strelkaning kerakli tomonga burilishini ta'minlash uchun asbobni o'lashda qutblilikka amal qilish kerak.

Magnitoelektrik sistemaga taaluqli asboblarning afzalliklari quyidagilardan iborat: 1) aniqlik sinfining yuqoriligi; 2) tashqi magnit maydonlar ta'sifini kam sezishi (chunki ular o'zining kuchli magnit maydoniga ega); 3) shkalasining tekisligi ; 4) o'zi iste'mol qiluvchi quvvatning ancha kichik bo'lishi (sezgirligining yuqoriligi).


Uning kamchiligiga ortiqcha yuklanishga sezgirligi, mexanizm-larining nisbatan qimmat turishini keltirish mumkin. Bu o'lhash mexanizmlardan yuqori sezgir asboblar (ampermetr, voltmetr va galvanometr) tayyorlashda foydalanilib, asosan nol indikatorlar (nol asboblar), ya'ni zanjirda tok yoo'qligini qayt qilgichlar (fiksatorlar) sifatida ishlataladi.

Elektromagnit mexanizm. Elektromagnit sistemasidagi asboblarning ishslash printsipi o'lchanaetgan tokli g'altak 1 ga po'lat uzak 2 ning tortilishiga asoslangan (1.5-rasm). Bunday qurilmada elektromagnit kuchlar shunday

yoo'nalgan bo'lishi kerakki, bunda uzakning holatini o'zgartirish uchun mexanizmdagi magnit oqimi eng ko'p bo'lsin. Qo'zgaluvchan o'zak 2 yaproqcha ko'rinishida bo'lib, ekstsentrifik holda o'qqa mahkamlangan bo'ladi. SHu o'qqa strelkaga teskari ta'sir ko'rsatuvchi moment hosil qiladigan spiral prujina 3 va tinchlantirgich 4 ning porsheni 5 mahkamlangan bo'ladi. O'lchanayotgan tok 1 qo'zg'almas g'altak orqali o'tib, magnit maydoni hosil qiladi. O'zak 2 magnitlanib, g'altakning teshigiga tortiladi va u mahkamlangan o'jni buradi. O'z navbatida, o'qqa mahkamlangan asbob strelkasi burchakka buriladi.



1.5-rasm.



1.6-rasm.

Asbobning qo'zg'aluvchan qismiga ta'sir etayotgan aylantiruvchi moment umumiy holda, magnit maydon energiyasi o'zgarishining burilish burchak bo'yicha olingan birinchi tartibli hosilasi orqali aniqlash mumkin:

$$M_{ayl} = \frac{dW_M}{d\alpha} = \frac{d}{d\alpha} \left(\frac{Li^2}{2} \right) = \frac{i^2}{2} \frac{dL}{d\alpha}$$

bunda L -g'altakning o'zak holatiga bog'lik bo'lgan induktivligi; i-o'lchanaetgan tok.

Aylantiruvchi moment g'altakdagi tokning kvadratiga proporsional deb qabul qilinadi:

$$M_{ayl} \propto s_1 I^2.$$

Aylantiruvchi moment M_{ayl} ni muvozanatlovchi teskari ta'sir ko'rsatuvchi moment spiral prujina 3 yordamida hosil qilinib, asbob strelkasining buralish burchagiga proporsionaldir:

$$M_{tes} \propto s_2 \alpha$$

Strelka buriloshining barqarorlashuvi $M_{ayl} \propto M_{tes}$ yoki $s_1 I^2 \propto c_2 \alpha$ ga mos keladi. Bundan

$$\alpha \propto (s_1 / s_2) I^2 \propto c_1 I^2$$


Strelkaning burilish burchagi tokning kvadratiga proporsional bo'lganligi uchun bu asboblarning shkalasi noteks bo'ladi. $\alpha \propto s_1 I^2$ ifodadan ko'rindikli,

qo‘zg‘aluvchan qism burilish burchagining ishorasi tok yoo‘nalishiga bog‘liq emas. Elektromagnit asboblardan o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok zanjirlarida foydalanish mumkin. Ular o‘zgaruvchan tok zanjirida tokning ta’sir etuvchi qiymatini o‘lchaydi.

Asbobning qo‘zg‘aluvchan qismi tinchlanishi uchun odatda havoli tinchlantirgich qo‘llaniladi. U egilgan tsilindr 4 dan iborat. Asbobning o‘qi tsilindr ichida porshen 5 shtogi bilan bog‘langan. Tsilindr ikkala qismidagi bosimlar farqi natijasida qo‘zg‘aluvchan qismning harakati sekinlashadi.

Elektromagnit mexanizmli asboblarning yangi konstruktsiyalarida magnit o‘tkazgichli mexanizmlar (1.6-rasm) qo‘llaniladi. Bunday mexanizmlarda tashqi magnit maydon ta’siri ancha susaygan bo‘ladi. Bunday asboblarning o‘zi iste’mol qilgan quvvat avvalgi konstruktsiyadagi asboblardan 3-4 marta kam bo‘lib, sezgirligi nisbatan yuqoridir. G‘altak 1 ikkita qutb uchliklari 3 bo‘lgan magnit o‘tkagich 2 ga joylashtirilgan. G‘altak cho‘lg‘amidan tok utganida sektor shaklidagi qo‘zg‘aluvchan uzak 4 o‘q (tortqi) atrofida bo‘rilib, magnit sistemaning maksimum energiyasiga mos keluvchi holatni egallaydi. Tortqilarga o‘rnatilgan qo‘zg‘aluvchan qismning burilishi teskari ta’sir ko‘rsatuvchi momentni hosil qiladi. Dempfer sifatida suyuqlikli tinchlantirgichdan foydalaniadi. Suyuqlikli tinchlantirgichlarning qo‘llanishi mexanizm o‘lchamlarini ancha kichraytiradi. Bu ularning boshqa sistemadagi o‘lchash asboblardan afzalligidir.

elektrodinamik mexanizmlar (EDM). EDMli asboblarning ishlashi tokli o‘tkazgichlarning o‘zaro ta’sir printsipi (toklari qarama-qarshi yoo‘nalgan, ikkita o‘tkazgich bir-biridan itarilishi, toklari bir xil yunalishda bo‘lsa, bir-biriga tortilishi)ga asoslanadi. Bunday o‘zaro ta’sirni g‘altaklardan biridagi tokning boshqa g‘altakda hosil bo‘lgan tokning magnit maydon bilan o‘zaro ta’siri, deb xulosa chiqarish mumkin.



EDMli asboblarni ikkita: ikki seksiyali qo‘zg‘almas 1 va qo‘zg‘aluvchan 2 g‘altakdan iborat. Qo‘zg‘aluvchan g‘altakka tok I ikkita spiral prujina 3 orqali beriladi.

Bu tok teskari ta’sir ko‘rsatuvchi moment hosil qilish uchun ham xizmat qiladi. O‘qqa strelka va havoli tinchlantirgich ham mahkamlangan bo‘ladi.(1.7-rasm). Aylantiruvchi moment g‘altakladagi toklarning ko‘paytmasiga to‘g‘ri proporsionaldir. Bundan tashqari, u qo‘zg‘aluvchan g‘altak burilishi bilan g‘altaklarning nisbatan o‘zgarish holatiga bog‘liqdir. Aylantiruvchi moment qo‘zg‘aluvchan g‘altak surilganda o‘zaro induktivlikning o‘zgarishiga proporsional holda ifodalanadi, ya’ni

$$M_{ayl} = I_1 \cdot I_2 \frac{dM_{12}}{d\alpha}$$

Tormozlovchi moment $M_{torm}qK\alpha$ prujinaning buralish burchagi α ga proportionaldir. Bu burchak asbob strelkasining burilish burchagidir. Strelka burilishining barqarorlashuvi M_{te} q M_{torm} ga mos keladi. Bunda

$$\alpha = \frac{1}{K} I_1 \cdot I_2 \frac{dM_{12}}{d\alpha}$$

O'zgaruvchan tokda bunday bog'lanish quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\alpha = \frac{1}{K} I_1 \cdot I_2 \cos(\bar{I}_1 \bar{I}_2) \frac{dM_{12}}{d\alpha}$$

YUqoridagi ifodalardan ko'rinalidiki, I_1 va I_2 toklar yoo'nalish-larining bir vaqtda o'zgarishi bilan burilish burchagi (ning ishorasi o'zgarmaydi. SHu sababli ham elektrodinamik mexanizmli asboblar o'zgarmas va o'zgaruvchan tok zanjirlarida qo'llanilishi mumkin.

G'altaklarning shaklini, ularning o'zaro joylashishini o'zgartirish orqali burchakning kichik o'zgarishida $dM/d\alpha$ ga ta'sir ko'rsatish, ya'ni $dM/d\alpha \approx const$ bo'lishiga erishish mumkin. Bunda shkalaning birmuncha tekis bo'lishiga erishiladi.

O'lhash mexanizmlari tayyorlashda po'latdan foydalanmaslik 0,5; 0,2; 0,1 kabi yuqori aniqlik sinfidagi asboblarni yasash imkonini beradi.


G'altaklarning magnit oqimlari havo orqali tutashganligi uchun kuchsizdir. Elektrodinamik mexanizmli asboblarning tashqi magnit maydon ta'siriga berilishi ularning kamchiligi hisoblanadi. EDM larni tashqi magnit maydon ta'siridan himoyalash uchun ular permalloy bilan ikki qavat qilib niqoblanadi.

Elektrodinamik vattmetrlar tok va kuchlanish bo'yicha, odatda, bir necha o'lhash chegaralaridan iborat bo'ladi. Bunday asboblar shartli shkalali bo'lib, vattmetrda o'lchanan kattalikning haqiqiy qiymatini topish uchun strelka ko'rsatayotgan bo'laklar soni asbobning doimiyligi s (har bir bo'lakga mos kelgan quvvat) ga ko'paytiriladi. U quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S q U_{nom} I_{nom} / N,$$

bunda N -asbob shkalasining bo'laklar soni.

Ferrodinamik mexanizmlar. Elektrodinamik mexanizmli asboblarning tashqi magnit maydon ta'siriga berilishini va aylantiruvchi momentining nisbatan kichik bo'lishini mexanizmda elektrotexnik po'lat plastinkalardan yoki permalloydan iborat ferromagnitli magnit o'tkazgichni qullash bilan bartaraf qilish mumkin. SHunday magnit o'tkazgichli elektrodinamik asboblar ferrodinamik asboblar deb ataladi. Ularning ishlash printsipi elektrodinamik asboblarnikiga uxshashdir. Qo'zg'almas g'altak 1 magnit o'tkazgich 3 ichiga joylashtiriladi, qo'zg'aluvchan karkassiz g'altak 2 esa po'lat 4 dan iborat qo'zg'almas tsilindr bilan urab olingan bo'ladi (1.8-rasm). Po'lat magnit o'tkazgich o'lhash mexanizmining magnit maydonini kuchaytiradi, natijada asbobning aylantiruvchi momenti birmuncha oshadi. O'zida kuchli magnit maydonining bo'lishi tashqi magnit maydonlar ta'sirini kamaytiradi.



1.8-rasm.

Ferrodinamik mexanizmli asboblar o‘zi yozar asboblarda hamda tebranish, silkinish va zarbli silkinish sharoitlarida ishlatish uchun mo‘ljallangan asboblarda qo‘llani-ladi. O‘zi yozar (qayd qilish) asboblarda strelka harakatlanayotgan qog‘oz lentasida o‘zining ko‘rsatish-larini (ma’lumotlarini) qayd qilish uchun siyohli pero bilan ta’minlangan bo‘ladi.

Ulash mexanizmida chiziqli bo‘lmagan element (po‘lat magnit o‘tkazgich) ning bo‘lishi, gisterezis, uyurma toklar va po‘latning magnitlanish egri chizig‘i chiziqli bo‘lmasligi sababli asbobning aniqlik darajasi pasayadi.

Ferrodinamik mexanizmli asboblarning aniqlik sinflari 1,5; 2,5 bo‘ladi.

Sinov savollari.

4. Magnitoelektrik asboblarni ishlash prinsipini tushuntiring.
5. Elektromagnitik asboblarni ishlash prinsipini tushuntiring.
6. Elektrodinamik asboblarni ishlash prinsipini tushuntiring.
4. O‘lhash asbobini variatsiyasi keltirilgan va nisbiy xatoliklar deb nimaga aytildi?
5. Asbobning nisbiy va absolyut xatoliklarini tushuntiring.
6. Bir sistemadagi ampermetr va voltmetrlar bir-biridan qanday farq qiladi?
7. O‘lchov asboblari tok va kuchlanishning qanday qiymatlarini o‘lchaydi?
8. O‘lchov asboblarni aniqlik sinfi buyicha qanday sinflarga bo‘linadi?
9. O‘lhash asbobining shkalasida qanday belgilari keltiriladi?

AMALIY ISHI №2

TURLI SISTEMADAGI AMPERMETR VA VOLTMETRLARNI TEKSHIRISH

Ishdan ko‘zda tutilgan maqsad:

Magnitoelektrik, elektromagnitik, elektrodinamik ampermetr va voltmetrlarning asosiy xossalari va ishlash prinsipini o‘rganish.

Ishning bajaralish tartibi.

1.Magnitoelektrik (ME), elektromagnitik (EM) va elektdinamik (ED) sistemadagi ampermetr va voltmetrlarning ishlash prinsipi bilan tanishish.

2.Namunaviy va tekshiralayotgan asboblarni ko‘zdan kechiring. Asbob shkalasidagi belgilarni aniqlab daftarga yozib oling.

3.Solishtirish usuli yordamida namunaviy asbobning ko‘rinishini tekshiralayotgan asbobni kuzatish uchun 2.1-rasmdagi sxemani yig‘ing va o‘lchamlar o‘tkazing .

4. 3-punktdagi o‘lhash natijalari buyicha absolyut, nisbiy va keltirilgan xatoliklarni hamda asbobning ko‘rsatish varaqasi va tuzatishni hisoblash.

5.Voltmetrni ichki qarshiligini voltmeter va ampermetr usulida o‘lhash va bu asbobda sarflanadigan normal quvvatni hisoblash.

6. 3,4 va 5 nuqtalarni ampermetr uchun tekshirish.

7.EM, ME va eD sistemalarni asboblarning mexanizmlarini chizish.

Ishni bajarishga tushuntirish.

1.Asboblarni tekshirishdan avval minimal tokida 15minut qizdirish kerak.

2.O‘lchov asbobining milini korrektor yordamida shkalaning nol belgisiga keltirish.

3.Tekshiralayotgan asbobning asosiy shkala uzunligi nazorat qilinadi.


4.Asbobni tekshirish o‘lchanayotgan kattalikni oshirib qiymatlar olinadi va huddi shu qiymatlarda kamaytirib o‘lhashlar yozib olinadi. Bunda o‘lchov asbobining mili tekshiralayotgan shkalaga mos tushishi lozim.

5.O‘lhash asbobining qarshiligini o‘lhashdan uch martadan kam bo‘lmagan o‘lchov natijalari olinib o‘rtaga arifmetik qiymati hisoblanadi.


6. $\delta = f(U_x)$ yoki $\delta = f(I_x)$ tuzatish egri chiziqli ko‘rinishda tuzatish ordinata o‘qiga yotqiziladi. Olingan nuqtalar to‘g‘ri chiziq bilan tutashtiriladi.

Ulanish sxemalari.


2.1-Rasm voltmetrni tekshirish




2.2-Rasm voltmetrni qarshiligidini o'lchash



2.3-Rasm ampermetrni tekshirish



2.4-Rasm ampermetr qarshiligidini tekshirish



Sxemadagi belgilashlar

$V_0 A_0$ – Namunaviy voltmeter va ampermetrlar

$V_x A_x$ – tekshirilayotgan voltmeter va ampermetrlar

mA – milliampermetrlar

mV – millivoltmetr

$R_1 R_2 R_3$ – reostatlar

PT-kamaytirish transformatori.

O'lchash va hisoblash natijalari jadvali

Voltmetrni tekshirish

2.1-jadval

\mathcal{N}°	U_x	U_0'		U_0''		$U_{0\ cr}$	Δ'	Δ''	β	β	γ	δ
O'lch	V	Bo'l.	V	Bo'l.	V	V	v	v	%	%	%	V
1												
2												

3											
4											
5											
6											
7											
8											

Voltmeter qarshiliginini o‘lchash

2.2-jadval

\mathcal{N}_o	$U \text{ o}$	$I \gamma$	$R \gamma$	R_{SR}	R_{Im}
$O'lch.$	$Bo'l \text{ V}$	$Bo'l. \text{ mA}$	Om	Om	wt
1					
2					
3					

Ampermetrni tekshirish

2.3-jadval

\mathcal{N}_o	I_x	I_0'	I_0''	Δ'	Δ''	β	β	γ	δ	Δ'
$O'lch$	$Bo'l.$	$Bo'l. \text{ A}$	$Bo'l. \text{ A}$	A	A		%	%	%	A
1										
2										
3										
4										
5										

Ampermetr qarshiliginini o‘lchash

2.4-jadval

\mathcal{N}_o	U_A	I_0	R_A	$R_{o'r}$	R_{UM}
ch	$Bo'l. \text{ V}$	$Bo'l. \text{ mA}$	Om	Om	wt
1					
2					
$:>$					

Jadvaldagi belgilashlar

$U_x I_x$ – tekshirilayotgan asbobni ko‘rsatish

$U_0 I_0$ – namunaviy asbobning oshirishdagi qiymati

$U_{0o'r} I_{0o'r}$ – namunaviy asbobning yuqorigi va pastki o‘zlashtirishdagi o‘rtacha qiymati

$I_v U_a$ – milliampermetr va millivoltmetrlarning ko‘rsatishi.

Hisoblash formulalari

1. Voltmetr ko‘rsatishining absolyut xatoligi

Oshirishda $\Delta' = U_x - U_0'$

Kamayishda $\Delta'' = U_x - U_0''$

2. Voltmetr ko‘rsatishining nisbiy xatoligi

$$\beta = \frac{\Delta'}{U_0'} \cdot 100 \%$$

$$\beta = \frac{\Delta''}{U_0''} \cdot 100 \%$$

3. Voltmetr ko‘rsatishi keltirilgan xatoliklari

$$\beta = \frac{\Delta' (\Delta'')}{U_{xxl}} \cdot 100 \%$$

4. Voltmetr ko‘rsatishining vorisiyasi

$$\gamma = \frac{U_0' - U_0''}{U_{xm}} \cdot 100 \%$$

Bu erda U_{xm} – voltmetrning yuqori o‘lchsh chegarasi

5. Voltmetr uchun tuzatish

$$\delta = U_{0o'r} - U_x$$

Bu erda $U_{0o'r} = \frac{U_0' + U_0''}{2}$

6. Voltmetrning qarshiligi

$$R_v = \frac{U_0}{I_v}$$

7. Voltmetr sarflanadigan nominal quvvat

$$P_{vn} = \frac{U_{xm}^2}{R_{vo'r}}$$

Sinov savollari.

1. ME, eD va eD asboblarni ishslash prinsipini tushuntiring.

2. Elektromexanik asboblar qanday umumiyligini qismidan iborat.

3. Prujina, korrektor va tinchlanirgichlarning vazifasi nima?

4. O‘lchash asbobini variatsiyasi keltirilgan va nisbiy xatoliklar deb nimaga aytiladi?

5. Asbobning nisbiy va absolyut xatoliklarini tushuntiring.

6. Bir sistemadagi ampermetr va voltmetrlar bir-biridan qanday farq qiladi?

7. O‘lchov asboblari tok va kuchlanishning qanday qiymatlarini o‘lchaydi?

8. O‘lchov asboblarni aniqlik sinfi buyicha qanday sinflarga bo‘linadi?

9. O‘lchash asbobining shkalasida qanday belgilarni keltiriladi?


AMALIY ISHI №3
ELEKTR KATTALIKLARINI O'LCHASH NATIJALARINI
O'LCHOVSHUNOSLIK BO'YICHA ISHLASH

Ishning maqsadi:

Ishning asosiy maqsadi tadqiqot ishlari olib borilayotgan yoki biror asbob tekshirilayotganda olingan o'lchash natijalarining xatoliklarini baxolash va o'lchanayotgan kattaliklarning haqiqy qiymatlarini aniqlash imkonini beradigan o'lchash natijalarini o'lchovshunoslik qonun qoidalaridan foydalanib, ishslash usullari bilan tanishidan iborat.

Ishni bajarish tartibi

8. Vattmetrning shartli belgilari va yaxlitlangan mao'lumotlari bilan bat afsil tanishing va texnik tavsiflarini amaliy ishi daftaringizga yozib qo'ying.
9. Vattmetrning doimiyligini hisoblash yoo'li bilan aniqlang.



3.1 – rasmda

10.3.1 – rasmda berilgan elektr tarhini yig'ing va bu tarhni o'qituvchi tekshirib bergandan keyin kuchlanish manbaga ulab, isteo'molchi isteo'mol qilayotgan quvvat P ni 10 - 15 marta takrorran o'lchang, olingan natijalarini esa 3.1. jadvaliga yozing.

3.1. jadval

O'lchash natijalari		Hisoblash natijalari				
i	P_{wi}	P_w	$P_{w o'r}$	$S_{Pw o'r}$	P_w	
	Vt	Vt	Vt^2	Vt	Vt	Vt
1						
2						
.						
19						
20						
yig'ndi						

11. O'rtacha arifmetik kuzatoish natijasi $P_o'r$ ni kuzatish natijasining tasodifiy og'ishlari p_i va ularning kvadratlari p_i^2 ni hisoblash yoo'li bilan aniqlang.
12. Kuzatish natijasining o'rtacha kvadrat og'ishi S_{Pw} ni qva o'lchash natijalarini o'rtacha kvadratik og'ishi $S_{Pw o'r}$ ni ham hisoblash yoo'li bilan aniqlang.
13. O'lchash natijasining ishonchli xatoligi δ_p ni aniqlang

14. Isteo‘molchi ishteo‘mol qilayotgan quvvat P_w ning o‘lchash natijasining eng so‘ngi qiymatini aniqlang

Amiliy ishni bajarish uchun uslubiy ko‘rsatmalar

Bu amaliy ishni majorish uchun chegarasining yaxlitlangan qiymatlari kuchlanish bo‘yicha 300 V, tok bo‘yicha 2,5 A bo‘lgan elektrodinamik vattmetrdan, o‘zidan o‘tkaza oladigan tok 2,5 A dank am bo‘lmagan va 220 V yoki undan ortiq kuchlanishga mo‘ljallangan isteo‘molchi va haqmda uzib ulagichlardan bittadan olib, ish uchun ajratilgan joyiga qo‘yiladi. Bu erda shuni aytish kerakki, isteo‘molchi qism yoki qurilma sifatida quvvati 200 Vt, 220 V li elektr chirog‘ni qo‘llash ham mumkin.

Ish uchun ajratilgan joyiga qo‘llangan jihozlar texnik tavsiflari bo‘yicha bajariladigan amaliy ishining talabaga jovob bera olishini o‘qituvchi tekshirib bergandan keyin 3.1 – rasmida berilgan tarh bo‘yicha elektr zanjiri yig‘iladi. Elektr zanjirini yig‘ayotganda vattmetrning yulduzcha bilan belgilangan generator qismasi deb ataladigan qismalariga etibor bering. Yig‘ilgan elektr zanjiri faqat o‘qituvchining ruxsati bilan 220 V kuchlanishga ega bo‘lgan manbaga ulanib, o‘lchash ishlari bajariladi. O‘lchash ishlari uzib ulagich yordamida 10 – 15 marta takroran bajariladi, olingan natijalar 1 – jadvalga yoziladi.

O‘lchash natijalarini o‘lchovshunoslik bo‘yicha ishslash

O‘lchash natijalarini ishslashdan maqsad olingan o‘lchash natijalarining xatoliklarini baholash va o‘lchanayotgan kattaliklarning haqiqiy qiymatlarini aniqlashdan iboratdir. O‘lchash jarayonida bajarilgan ishlarning turiga qarab, masalan, o‘lchash usuliga qarab qo‘llanilayotgan o‘lchash vositasining xususiyatiga, o‘lchash asboblarini kuzatish, uning ko‘rasatgishlarini yozib olish va shunga o‘xhash boshqa sabablarga ko‘ra olingan o‘lchash natijalarini usullari har xil bo‘ladi.

Olingan o‘lchash natijalarini o‘lchash usullariga qarab ishslash. O‘lchash natijalarini aniqlashuchun qo‘llaniladigan tadqiqot mao‘lumotlarini ishslash usullariga qarab o‘lchash bevosa, bilvosita, birgalikda va umumiyligi o‘lchashlarga bo‘linadi.

Bevosita o‘lchashlar. Bu usuldagagi o‘lchashlarda o‘lchanayotgan kattalik qiymatini o‘lchashishlarini bajarish vaqtidagi olingan tadqiqotlar mao‘lumotlari bo‘yicha aniqlanadi. Bevositao‘lchashlar uchun misol qilib elektr zanjiridagi toklarni ampermetr bilan o‘lchashni ko‘rsatish mumkin.

Bilvosita o‘lchashlar. Bu usuldagagi o‘lchashlarda o‘lchanayotgan kattalik qiymati shu o‘lchanayotgan kattalik bilan bevosa o‘lchash natijasida olingan qiymatlar orasida mao‘lum bo‘lgan bog‘lanishlarga asoslanib aniqlanadi. Bilvosita o‘lchashlarda o‘lchash kattaliklarining qiymati qo‘yidagi tenglamani echish yoo‘li bilan aniqlanadi:

$$XqF(x_1, x_2, \dots, x_{n-1}, x_n), \quad (1)$$

Bu erda x_1, x_2, \dots, x_{n-1} – bevosa o‘lchashlardan olingan kattalik qiymatlari.

Bilvosita o'lhashlar uchun misol qilib rezistor R ning qarshiligini voltmeter va ampermetr yordamida o'lhashlarni kuzatish mumkin. Bu xolda rezistorning qarshiligi qo'yidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$R=U/I \quad (2)$$

Umumiy o'lhashlar. Bu usuldagisi o'lhashlarda olchanayotgan kattaliklar qiymati umumiy o'lhashlar bir necha bir xil bo'lgan kattaliklarni bir vaqtning o'zida o'lhashlardan iborat bo'lib, bunda o'lchanayotgan kattaliklar qiymati, yao'ni nomalum bo'lgan qiymatlar bu kattaliklarning har xil birikmalarini bevosita o'lhash natijasida hosil qilingan tenglamalar tizimini echish yoo'li bilan aniqlanadi. Bu usuldagisi olchashlarga misol qilib, uchburchak shaklda ulangan rezistorlarning qarshiligini o'lhashni ko'rsatish mumkin. Bunda uchburchakning har xil uchlari orasidagi qarshiliklar o'lchanadi va bu uchta o'lhash natijalari bo'yicha rezistorlarning qarshiliklari aniqlanadi.

Birgalikda o'lhashlar. Bu usul, bir xil bo'lmagan birnecha kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash uchun ularni birato'lasiga o'lhashdan iborat, bunda yana tenglamalar tizimi ham echiladi, Bu birgalikda o'lhash usuliga resistor qarshiligi haroratga bog'liqligini aniqlashni misol qilib ko'rsatish mumkin;

$$R_t = R_0 (1 + At + Bt^2) \quad (3)$$

Buning uchun resistor qarshiligi uch xil haroratta o'lchab, undan keyin mana shu uchta haroratga tegishli tenglamalar tizimi tuzilib, ulardan bog'lanishlarning R, A va B parametrlari aniqlanadi.

Endi o'lhash natijalarini ishlash bo'yicha aniq bir misol keltirish uchun yuqorida o'lhash usullaridan bevosita o'lhash usulini ko'ramiz. Umuman o'lhash natijalarini ishslash o'tkazilgan kuzatishlar soniga ham bog'liq bo'lib, u qirqdan kam ($n < 40$) bo'lganda bir tartibda yoki qirqdan katta ($n > 40$) bo'lganda esa boshqa tartibda o'lhash natijalari ishlanadi.

Kuzatish soni qirqdan kam ($n < 40$) bolganda o'lhash natijalari qo'yidagi tartibda ishlanadi.

9. O'lhash kattaligining haqiqiy qiymatini mao'lum bir nuqtasidagi qiymatini aniqlash kerak.

$$\bar{x}_{yp} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i \quad (4)$$

10. Kuzatish natijalarining tasodifiy og'ishi va ularning kvadrati hisoblanadi:

$$\rho_i = x_i - \bar{x}_{yp} \quad (5)$$

bundan:

$$\rho_i^2 = (x_i - \bar{x}_{yp})^2 \quad (6)$$

11. Kuzatish natijalarining ortacha kvadratik og'ishining nuqtaviy qiymati hisoblanadi:

$$S_x = \sqrt{\frac{1}{1-n} \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x}_{yp})^2} \quad (7)$$

12. O'lhash natijalarining o'rtacha kvadratik og'ishining mao'lum bir nuqtaviy qiymati aniqlanadi:

$$S_{x,yp}^2 = \frac{1}{2} S_x^2 = \frac{1}{n(n-1)} \sum_{i=1}^n \rho_i^2 \quad (8)$$

13.Kuzatish natijalarining natijalarining taqsimlanishining mo‘tadilligi tekshiriladi.
Bu qo‘yidagi ifoda yordamida amalgam oshiriladi:

$$F_n(x_k) = \frac{K}{n+1} \quad (9)$$

bu yrda K q 1, 2, 3,n - 1, n

Buning uchun (1) ifoda yordamida aniqlangan qiymat bo‘yicha normalashning mutadil taqsimlanish integral funksiya jadvalidan [5] har xil F[Z] uchun Z ning qiymatlarini aniqlash kerak, chunki shu Z ning qiymati bo‘yicha kuzatish natijalari taqsimlanishining mo‘tadilligi tekshiriladi.

14.Ishonchli ehtimollikning mao‘lum qiymatini berib o‘rtacha kvadratik og‘ishi uchun ishonchli oraliq va o‘lhash natijalarining ishonchli xatoliklari aniqlanadi.

15.Anglash va qo‘pol xatolarga yoo‘l qo‘yilganligi aniqlansa, xatolikni keltirib chiqargan o‘lhash natijasi tashlab yuboriladi va hisoblash qayta takrorlanadi

16.O‘lhash natijasi qo‘yidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$x_y = x_{yp} \pm \delta_p \quad (10)$$

YOki $\delta_p = t_p S_x$ ekanligini hisobga olib, (10) ifodani tasodifiy xatoliklarning taqsimlanishi mo‘o‘tadil bo‘lgan hol uchun qo‘yidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$x_x = x_{yp} \pm t_p S_{x,yp} (n = ..., P =\%) \quad (11)$$


Bordi-yu, tasodifiy xatoliklarning taqsimlanishi mo‘tadil bo‘lganda , yao‘ni boshqa xollar uchun esa bu ifoda qo‘yidagi ko‘rinishda yoziladi.

$$x_x = x_{yp}; (S_{x,yp} =; n =) \quad (12)$$

endi o‘lhash vaqtida qilingan kuzatishlarni ishslash uchun misol tariqasida elektr toki I ni o‘lhash natijasidagi olingan miqdorlarni o‘lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatiga qanchalik yaqinligini ko‘rish mumkin. Buning uchun miqdorlarni o‘lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatining ma’lum nuqtadagi qiymatini kuzatishning arifmetik ma’lumotlari (4) ifoda yordamida hisoblangan.va topilgan qiymatlar 3.2-jadvalning 3-ustuniga kiritilgan.

Elektr tokining o‘lhash natijalarini ishslash

3.2-jadval

O‘lhash natijalari		Hisoblash natijalari			
i	I A			I_o·r A	S_1 A
1	2	3	4	5	6
1	1,54040	q 9,80	96,04		
2	1,53807	- 13,50	182,25		
3	1,53944	q0,20	0,04		
4	1,53855	-8,70	75,65		

5	1,53995	q5,30	28,09			
6	1,54067	q12,50	156,75			
7	1,54133	q19,10	364,81			
8	1,53897	-4,50	20,25			
9	1,53734	-20,80	432,64			
10	1,53935	-0,70	0,49			
11	1,53867	-7,50	56,75			
12	1,54026	q 8,40	70,56			
Yig‘indi	18,47303	-0,40	1483,36			

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki tokning bir qiymatini 12 marta o‘lchaganda 9- sida eng katta xatolikka yo‘l qo‘lgan.

3.3-jadval

O‘lchash natijalari		Hisoblash natijalari				
i	P_{wi}	P_i	$\square P_i^2$	$P_{w\Box o'r}$	$S_{Pw o'r}$	P_w
	Vt	Vt	Vt^2	Vt	Vt	Vt
1	100,5	q0,2	4			
2	100,3	q0,0	0			
3	99,4	-0,9	81			
4	100,0	-0,3	9			
5	100,8	q0,5	25			
6	101,0	q0,7	49			
7	100,6	q0,3	9			
8	99,8	-0,5	25			
9	100,4	q0,1	1			
10	100,2	-0,1	1			
yig‘ndi	1003,0	0,0	204			

Agar elektr quvvatini 10 marta o‘lchanib natijalari 3-jadvalning ikkinchi ustuniga kiritilgan. O‘lchash xatolikligining ishonchli δ_p va o‘lchanayotgan quvvatini natijaviy qiymati $P_{w,nat}$ ishonchli ehtimollik $Pq0,99$ ga teng bo‘lgan hol uchun aniqlangan (3.3-jadval).

Buning uchun $P_{w,o'r}$ va $S_{Pw,o'r}$ lar aniqlanib so‘ng St'yudent taqsimoti berilgan jadvab o‘yicha St'yudent o‘zgarmas ko‘paytuvhilarisi $t_pq3,25$ ekanligi aniqlangan (3.4-jadval).

St'yudent o'zgarmas ko'paytuvhilari

3.4-jadval

n	P							
	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9	0,95	0,98	0,99
2	1,00	1,376	1,963	3,078	6,314	12,706	31,821	63,659
3	0,816	1,061	1,386	1,886	2,920	4,303	6,965	9,925
4	0,765	0,978	1,250	1,638	2,353	3,182	4,541	5,841
5	0,741	0,941	1,190	1,533	2,132	2,776	3,747	4,604
6	0,727	0,928	1,156	1,476	2,015	2,571	3,365	4,032
7	0,718	0,906	1,134	1,443	1,943	2,447	3,143	3,707
8	0,711	0,896	1,119	1,415	1,895	2,365	2,998	3,499
9	0,706	0,889	1,108	1,397	1,860	2,306	2,896	3,355
10	0,703	0,883	1,100	1,383	1,833	2,262	2,821	3,250
15	0,692	0,868	1,076	1,345	1,761	2,145,	2,624	2,977
20	0,688	0,861	1,066	1,328	1,729	2,193	2,536	2,861
25	0,685	0,857	1,059	1,318	1,711	2,064	2,492	2,707
30	0,683	0,854	1,055	1,311	1,699	2,045	2,469	2,756

Nazorat savollari:

- 10.O'lhash natijalarini ishlaganda qanday maqsadga erishilai?
- 11.O'lhash natijalarini ishlash o'lhash usuliga bog'liqmi?
- 12.O'rtacha arifmetik qiymat qanday qilib aniqlanadi?
- 13.Nima uchun o'rtacha arifmetik qiymat o'lhash kattaligining haqiqiy qiymati sifadida qabul qilingan?
- 14.Kuzatish natijalarining tasodifiy og'ishi qanday aniqlanadi?
- 15.O'lhash natijasining ishonch xatoligi qanday aniqlanadi?
- 16.Kuzatish natijalarining o'rtacha kvadratik og'ishi qanday ifoda bilan aniqlanadi?
- 17.O'lhash natijasining ishonchli xatoligi bilan kuzatish soni orasida qanday bog'lanish bor?
- 18.O'lhash kattaligining haqiqiy qiymatini ko'rsatuvchi tenglamasini yozing?

AMALIY ISHI №4

O'ZGARMAS TOK KO'PRIGINI HISOBBLACH

Ishning maqsadi:

Qarshilikni ko'prik usulida o'lhash. Bir va ikki o'zgarmas tok ko'prigi tuzilishi bilan tanishish va texnik o'lhash jarayonini o'rganish.

Ishning bajarish tartibi.

1.Bir va ikkitali o'zgarmas tok ko'prigi ishlatish nazariyasi bilan tanishish va uning prinsipial sxemasini chizish.

2.Bir va ikkitali P-32 tipli mostning tuzilishi va posportidagi kattaliklari bilan tanishish.

3.Bir ikkitali ko'prikning tashqi ulanish sxemasi bilan tanishing va sxemani yig'ing.

4.Bir ko'prikli sxemani yig'ing va berilgan ko'rinishni o'lchang.

5.Ikki ko'prikli sxemani yig'ing va berilgan ko'rinishni o'lchang.

6.Mostning xatoligini aniqlang.

7.Mostning sezgirlingini aniqlang

O'zgarmas tok ko'prigining prinsipial sxemasi

Amaliy ishiga tushuntirish va hisoblash formulalari.

1.Bir ko'prikli sxemada aniqlanadigan qarshilikni formula yordamida hisoblash.

$$R_x = R_1 \frac{R_2}{R_3}$$

2.Ikki ko'prikli sxemada aniqlanadigan qarshilikni hisoblash formulasi.

$$R_x = R_2 \frac{R_1}{R_3}$$

R_3 qarshilik hisoblash formulasi bo'lmaydi, R_2 qarshilikka teng qilib o'rnatilishi lozim.

3. Ko'prik sxemalarni hisoblash jarayonida yuqorida keltirilgan formula yordamida hisoblangan, o'lchanayotgan qarshilikka mos keluvchi qarshilik o'rnatiladi.

4. Foydalanilayotgan namunaviy qarshiliklarni nominal tokni oshirmaydigan o'zgartiriladigan qarshilik yordamida ampermetrdagi ishchi tokni o'rnatib ikki ko'prikli sxemao'lchanadi.

5. Ko'prikning xatoligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\beta = \frac{R_0 - R_0}{R_0} \cdot 100 \%$$

Bu erda R_0 – o'lchanadigan namunaviy qarshilikning nominal qiymati.

R_0 – qarshilikni ko'prik yordamida o'lchangan qiymati.

6.Ko'prikning sezgirlingini hisoblash formulasi

$$S_m = \frac{\Delta \alpha}{\frac{\Delta R_1}{R_1} \cdot 100 \%} \cdot \frac{\delta_{o'l}}{z}$$

Bu erda $\Delta \alpha$ – ΔR_1 qiymatni R qarshilikni o'zgarishi nisbatan galvonometrning burilish burchagini o'zgarishidir

4.1-jadval Bir ko‘prikni o‘zgarish qiymatlari

4.1-jadval

Nº	R,	R ₂	R ₃	R _x	R _{MAG}
O‘lch	Om	Om	Om	Om	Om
1.	22,1	1000	100	221	220
2.	33,1	1000	100	331	330
3.	45,1	1000	100	451	450
4.	56,0	1000	100	561	560

4.2-jadval Ikki ko‘prikni o‘zgarish qiymatlari

4.2-jadval

Nº	R _i	R ₂	R ₃	R _H	R _{MAG}	R _x
O‘lch	Om	Om	Om	Om	Om	Om
1.	86	100	100	1	0,8	0,86
2.	94	100	100	1	0,9	0,94
3.	106	100	100	1	1	1,06
4.	202	100	100	1	2	2,02

Sinov savollari

- 1.Bir va ikki ko‘prikli o‘zgarmas tok ko‘priklarini farqi nimada?
- 2.Bu ko‘priklarning prinsipial sxemasini chizing.
- 3.Bir va ikki ko‘prikli o‘zgarmas tok ko‘prigining tenglashtiruvchi shartini yozing.
- 4.Nima uchun bir ko‘prikli sxemada kichik qarshilikni aniq o‘lchab bo‘lmaydi?
- 5.Nima uchun ikki ko‘prikli sxemada $R_1 = R_1 \cdot R_2 = R_2$ qilib o‘rnataladi. Bu qarshiliklarni tenglashtirmsandan ikki ko‘prikli sxemada tenglashtiruvchi shartni bajarish mumkin.
- 6.O‘zgarmas tok ko‘pragini sezgirligi nimaga bog‘liq?

AMALIY ISHI № 5

O‘ZGARMAS TOK POTENTSIAMETRLARINI HISOBLACH O‘ZGARMAS TOK POTENTSIAMETRLARINI HISOBLACH ISHNING MAQSADI:

O‘zgarmas tokda o‘lchashning kompensatsion usulini o‘rganish. O‘zgarmas tok potensiometrini elektr sxemasi va tuzilishi bilan tanishish. Unda texnik o‘lchamlar bilan tanishish. O‘zgarmas tok potensiometri yordamida turli elektr kattaliklarni kuchlanish, tok va qarshiliklarni o‘lchash metodlari bilan tanishish.

Potensiometrga tushuntirish.

Potensiometr ikkita ishchi I_AqI_Bq1mA tokiga ega zanjirlardan iborat. A-zanjiriga R₁÷R₅ rezistorlar, B – zanjirtga R₆÷R₁₄ rezistorlar kiradi. R₂ (20 × 100 Om), R₃ (11 × 10 Om), R₆ (10 × 10 Om) rezistorlar mos holda potensiometrning I, II, III o‘lchash dekadalariga tug‘ri keladi. SHutkasining har biri uchta qayta ulagich

bittasiga ulanadigan. R_7 ($10 \times 10\text{m}$) resistor uch qator kontaktidan iborat. SHutka bilan ketma-ket R_8 (10 K), R_9 (10 K), R_{10} (100 K) qo'shimcha resistor qo'shiuladi.

Xuddi shunday B zanjir R_{11} ($81,82\text{ K}$) qo'shimcha qarshilik va shuntlashuvchi R ($1,12 \cdot 48\text{ K}$) rezistordan iborat B zanjir uchun qo'yidagi tenglamani tuzish mumkin.

$$R_E = \frac{\frac{R_8 R_{12}}{R_8 + R_{12}} (R_{11} + \frac{R_9 R_{10}}{R_9 + R_{10}})}{\frac{R_8 R_{12}}{R_8 + R_{12}} + R_{11} + \frac{R_9 R_{10}}{R_9 + R_{10}}}$$

$$I_8 = I_B \frac{R_E}{R_8}; \quad I_{12} = I_B \frac{R_E}{R_{12}}; \quad I_{11} = I_8 - I_B - I_{12}$$

$$I_9 = I_{11} \frac{R_{10}}{R_9 + R_{10}}; \quad I_{10} = I_{11} \frac{R_9}{R_9 + R_{10}}$$

Bu tenglamalar yordamida I_B (1mA) va Qarshiliklari yuqorida ko'rsatilganidek bo'lganida B zanjirning qo'yidagi toklari topiladi.

$$I_8 = 0,1 \cdot I_B = 0,1\text{ mA}$$

$$I_9 = 0,01 \cdot I_B = 0,01\text{ mA}$$

$$I_{10} = 0,001 \cdot I_B = 0,001\text{ mA}$$

R_7 qarshlik seksiyasidagi I_8 , I_9 , I_{10} toklar orqali xosil qilingan kuchlanishlar tushuvi va bir-biriga mos tushuvchi toklar bilan tao'sir etadi. Xuddi shunday R_7 qarshilikning bir va shu qatorida potentsiometrning IV, V, VI o'lchash dekadalarini hosil qiladi. R-qarshiliklar magazine I_A ishchi tokini katta, o'rta va aniq o'zgarishi uchun, R_{14} qarshiliklar magazine esa I_B tokni o'zgarishi uchun xuzmat qiladi.

Qarshiliklarni o'ninchi sektsiyasi I dekadalarini va ikkinchi dekadalarining barcha qarshiliklari R_4 (8Om) o'zgarmas qarshilik va R ($18 \times 0,05\text{ Om}$) o'zgartiruvchi qarshiliklar bilan birgalikda yuklama qarshiliklari hosil qilib, I_A ishchi tokini o'rnatishi uchun xizmat qiladi.

$$R_{10}=900+110+8=(0,05+0,09)=1018,05=1018,9\text{ Om}$$

Atrof muhit temperaturasiga bog'liq bo'lgan e_H normal elementning eYUK qiymatiga mos holda R_5 qarshilik tanlanishi lozim.(O'qituvchi tomonidan beriladi).

I_A ishchi tokini o'rganish uchun R_1 qarshilikni o'zgartirib G_1 knopka bosilgan xolda galvonometr nol holatga keltiriladi. Bu esa R_{10} qarshilikdagi kuchlanish tushuvi normal elementning eYUK bilan kompensatsiya qilinishida kuzatiladi.

Agar masalan eYUK e_H ($1,0186\text{ B}$) bo'lsa u holda o'rnatilgan R_{10} ($1018,6\text{ Om}$) qarshilikda ishchi toki e_H q I_A R_{10} tenglamaga asosan qo'yidagiga teng bo'ladi

$$I_A = \frac{E_H}{R_{10}} = \frac{1,0186}{1018,6} = 1\text{ mA}$$

I_B ishchi tokini o'rnatish uchun R_3 Rezistorning 100 Om qarshilikdan iborat 10-seksiyasidan va R_{13} (100 Om) qarshilikdan foydalilanildi. G_2 knopka bosilgan holda

R_{14} qarshilikni o‘zgartirib galvonometr nol holatga keltiriladi. Bu o‘z navbatida ko‘rsatilgan qarshilikda kuchlanish tushuvi kompensatsiyasiga mos tushadi. Bu esa qarshilik orqali o‘tuvchi toklar tengligidan kelib chiqadi.

$$YAo\text{‘}ni I_B=I_A=1\text{mA}$$

Ishchi tokini o‘rnatishda har bir o‘lchash dekadasi seksiyalari kuchlanishlar tushuvi qiymati 1. jadvalda ko‘rsatilganidek bo‘ladi.

5.1. jadval

dekada	Qarshiliklar seksiyasi	Tok		Kuchlanish tushuvi
		Om	mA	
I	100		1	100
II	10		1	10
III	1		1	1
IV	1		0,1	0,1
V	1		0,01	0,01
VI	1		0,001	0,001

E_x ni o‘lchashni galvonometr knopkasi G_3 qo‘yiladi. Dekada ulagichlari xolatini ketma-ket o‘zgartirish yoo‘li bilan o‘lchanayotgan eYUK yoki potensiometrni o‘lchash dekadalaridagi kuchlanishlar tushuvlarining yig‘indi kuchlanishi kompensatsiya qilinib, galvonometr nolga keltiriladi.


Maksimal kuchlanish balki potensiometr bilan potensiometrni yuqori o‘lchash chegarasini aniqlab, barcha seksiyalarning o‘lchash dekadalaridagi kuchlanishlar tushuviga teng.

$$U_m = 20 \times 100 + 11 \times 10 + 10 \times 1 + 10 \times 0,1 + 10 \times 0,01 + 10 \times 0,001 = 2121,11 \text{ mB} = 2,12111 \text{ B}$$

Bu chegarani oshirish uchun namunaviy kuchlanish bo‘lgichlar qo‘llaniladi.

Ishni bajarish tartibi

1. Darsliklardan o‘zgarmas tok potentsiametrining principial sxemasi o‘rganish.
2. O‘zgarmas tok potensiometri P 37 ning sxemasi bilan tanishish. Uni chizish va hisobotga kiritish
3. P 37 potensiometrni tashqi qurulmalari bilan tanishish. Uning har bir elementining vazifasini tushuntirish. Potensiometrni tashqi ko‘rinishini chizish.
4. Potensiometrning barcha yordamchi jixozlari va ularning yozilishlari hamda pasportidagi kattaliklar bilan tanishish.
5. Voltmetrni tekshirish uchun sxema yig‘ish. Potensiometr zanjirida ishchi tokini o‘rnatish. Voltmetrni tekshiruvdan o‘tkazish
6. Ampermetr tekshiruvdan o‘tkazish sxemasini yig‘ish. Ishchi tokini tekshirish. Ampermetrni tekshiruvdan o‘tkazish.
7. Berilgan qarshilikni o‘lchash uchun sxemani yig‘ish va uni o‘lchash.



Ishga tushuntirish.

1. Sxemani yig'shda manba kuchlanishining qutublari potensiometr qisqichiniong qutublari bilan mos tushushi zarur.

2. O'qituvchi korsatmasiga asosan voltmeter va ampermetrlar shkala bo'limlarida tekshiriladi.

3. U_0 Kuchlanish votmetri tekshirishda

$$U_0 = K_b U_n$$

formula bilan aniqlanadi.

Bu erda K_b - kuchlanish belgisining bo'linish koeffisienti

U_n - potensiometrda beriladigan kuchlanish


Tekshiriladiga ommetrdan o'tuvchi tok qo'yidagicha ifodalanadi.

$$I_0 = \frac{U_0}{R_0}$$


Bu erda $U_R - R_0$ namuna qarshiligi tushadigan kuchlanish. Absalyut keltirilgan xatoliklar topiladi.

4. Qarshilikni o'lchash uchun sxema va o'lchash formulalari darslikdan olinadi tablitsa tuziladi.

5. Potensiometr ishni bajarish davomida barcha o'zgartirishlarni shunday olib borishi kerakki, galvonometr ko'rsatishi shkala chegarasidan oshib ketmasin.



5.1 -rasm . P-37-1 o‘zgarmas tok potentsiometrining sxemasi



$$R_1 = (20100 \quad) \qquad R_8 = 10 K$$

$$R_3 = (11100 \quad) \qquad R_9 = 10 K$$


$$R_4 = 8 \quad R_{10} = 100 \text{ K}$$

$$R_5 = (110,005) \quad R_{11} = 81,82 \text{ K}$$


$$R_{\epsilon} = (101) \quad R_{12} = 1,1248 \text{ } K$$

$$R_{\perp} \equiv (101) \qquad R_{\parallel} \equiv 100 \text{ } K$$

Potensiometrining -"X" qisqichi
 5.2 -rasm . Vol'tmetrni telshirish sxemasi .



Potensiometrining -"X" qisqichi
 5.3 -rasm . Ampermetrni telshirish sxemasi .



5.4 –rasm. Qarshilikni telshirish sxemasi .

VI. Natijalarni o‘lchash va hisoblash jadvali.

Vol’tmetrni tekshirish

5.2-jadval

№ o‘lchashlar	U_x		U_o	δ	Δ	β
	Bo‘l.	V	V	V	B	%

Ampermetrni tekshirish

5.3-jadval

o‘lchashlar	I_x		U_0	I_o	δ	Δ	β
	Bo‘l.	mA	V	mA	mA	mA	%

Nazorat savollar.

1. O‘zgarmas tokda o‘lchashning konpensatsion usulini tushuntiring. Ozgarmas tok potensiometrini prinsipial sxemasini chizing va tushuntiring.
2. O‘zgarmas tok potensiometrida ishchi toklarini ko‘rsating. Bu toklar qanday o‘rnataladi.
3. Atrof muhit temperaturasi nimaga tao‘sir ko‘rsatadi va u potensiometrda qanday hisobga olinadi.
4. R_{10} to‘g‘ri tanlanganda va G_1 qisqichlari ulanib, I_A q1 mA bo‘lganda galvonometr nolga olb kelinadi
5. Potensiometrda IV, V, VI o‘lchash dekadalari hosil qilinishini tushuntiring .
6. O‘zgarmas tok potensiometriniyuqori o‘lchash chegarasini aniqlangan. Uni qanday oshirish mumkin
7. Qanday yutuqlari bor. Nima uchun u qutublanildi.

“ Metrologiya, standartlash va sertifikatsiya ” fanidan tajriba ishlari 5310200 “Elektrenergetikasi” yunalishi buyicha ta’lim olayotgan talabalar uchun muljallangan.

Tajriba ishlari Uzbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus ta’lim Vazirligining Oliy o‘kuv yurtlari boshkarmasi tomonidan tasdiiklangan namunaviy va kafedrada ishlab chikilgan ishchi o‘kuv dasturlari asosida tuzilgan. Ushbu ishlanma bakalavriatning yunalishi talabalari uchun muljallangan bulib, ukishning yangi Davlat standartlariga va ishchi - ukuv dasturiga tula mos keladi.

Tuzuvchi:

Tovbaev A.N.

NDKI «Elektr energetika» kafedrasи mudiri.

SHaymatov B.X. NDKI

«Elektr energetika» kafedrasи dotsenti

Takrizchilar:

Eshev X.X. – NTES

Eshmurodov Z.O.-NDKI.

1-TAJRIBA ISHI

O‘zgaruvchan tok zanjirida quvvatni o‘lchash va vattmetr ko‘rsatishining aniqligini baxolash.

1. Ishdan ko‘zda tutilgan maqsad.

1. Ampermestr, voltmetr va vattmetrning tuzilishi bilan tanishish.
2. Vattmetr shkalasining bo‘linish darajasini aniqlash.
3. O‘zgaruvchan tok zanjirida quvvatni o‘lchashni o‘rganish.
4. Ampermestr va volmetr yordamida vattmetr ko‘rsatishining aniqligini başolash.

2. Tajriba ishiga tushuntirish.

Elektrodinamik sistemadagi vattmetr yordamida o‘zgaruvchan va o‘zgarmas tok zanjiridagi quvvat o‘lchanadi. O‘zgaruvchan tok zanjirida elektrodinamik vattmetr bilan aktiv quvvat o‘lchanadi. Vattmetr ko‘rsatayotgan quvvatni aniqlash uchun, vattmetr strelkasi ko‘rsatayotgan shkalaning bo‘linmalari sonini uning bo‘linish darajasiga kupaytirish kerak. Odatta ūzir bir vattmetrning shkalasida, ketma-ket cho‘lg‘am tokining va parallel cho‘lg‘am kuchlanishning nominal qiymatlari ko‘rsatiladi (masalan 5A, 220V). Bu belgilanganlar buyicha vattmetr shkalasining bo‘linish darajasi aniqlanadi.

$$C = \frac{U_n \cdot I_n}{n}$$

bu erda I_n , U_n -tok va kuchlanishning nominal qiymatlari, n-shkalaning bo‘linmalari soni.

Vattmetr strelkasining burilishi uning ketma-ket va parallel cho‘lg‘amlaridan o‘tayotgan toklarning o‘zaro yo‘nalishiga bog‘lik. Vattmetri zanjirga to‘g‘ri o‘lash uchun ketma-ket cho‘lg‘amning bir uchi va parallel cho‘lg‘amning bir uchi aloşida belgi *(yulduzcha) bilan belgilanadi. Bular generator uchlari deb ataladi. Ana shu ikkala uchni (qismani) generatorning bir qutbiga o‘laganda, vattmetr strelkasining burilishi to‘g‘ri bo‘ladi. Barcha o‘lchash asboblari kabi vattmetr ūzam xatolikka ega va bu xatoliklar vattmetrning ko‘rsatishini, ampermestr va voltmetr ko‘rsatishlari bilan solishtirib aniqlanadi.

Bu maqsad uchun qullangan ampermestr va voltmetrning aniqlik sinfi, vattmetrning aniqlik sinfidan yuqori bo‘lishi lozim. Ampermestr va voltmetrning ko‘rsatishi bo‘yicha ūzisoblangan quvvat ūzaqiqiy quvvat deb qabul qilinadi:

$$P_u = UI$$

bu erda U va I -voltmetr va ampermestr yordamida o‘lchangan kuchlanish ūzamda tokning o‘rtacha qiymati. Vattmetr ko‘rsatishiga tuzatish kiritish lozim. Ūzir qanday tekshirilayotgan vattmetrning ishlab chiqarish sharoitidagi ishini engillashtirish uchun, tuzatish egri chizig‘iga ega bo‘lishi lozim.

To‘zatish egri chizig‘i quyidagicha ifodalanadi:

$$\sigma = f(P)$$

bu erda σ -teskari ishora bilan olinib, son jübatdan absolyut xatolikka teng bulgan tuzatish, vt

$$\sigma = -\Delta P = (P - P_x),$$

bu erda ΔP -absolyut xatolik, vt. P -tekshirilayotgan vattmetrning ko‘rsatishi, vt

Aniq o'lchashlarda absolyut xatolik tuzatish kiritish yo'li bilan ўsisoblanadi. O'lchanayotgan miqdorning shaqiqiy qiymatini olish uchun, asbobning ko'rsatishiga qo'shilishi kerak bo'lgan miqdorga tuzatish deyiladi:

$$P_x = P + \sigma$$

Asbobning nisbiy xatoligi, uning absolyut xatoligi bilan o'lchanayotgan miqdor shaqiqiy qiymatining nisbatiga teng bo'lib, foizlarda ifodalanadi :

$$\gamma_n = \frac{P - P_x}{P} \cdot 100 \%$$

O'lchash asbobining keltirilgan xatoligi, uning absolyut xatoligi bilan asbob shkalasi nominal qiymatining nisbatiga teng bo'lib, foizlarda ifodalanadi:


$$\pm \gamma_{kel} = \frac{\pm \Delta P}{P} \cdot 100 \%$$

bu erda P_n -asbob shkalasining nominal qiymati, vt .

Normal ish sharoitida aniqlangan eng katta asosiy keltirilgan xatolik asbobning aniqlik sinfi deyiladi. Normal ish sharoiti-bu atrof muşitning temperaturasi 20^0 S, asbobning normal ish şolati, uning yaqinida ferromagnit massalarning va tashqi magnit maydonining (Ernikidan tashqari) bo'lmashigidir.

3. Ishni bajarish tartibi.

1. 2.1-rasmdagi sxema yig'iladi.



1-расм.

2. Vattmetr shkalasining bo'linish darajasi aniqlanadi .

1-jadval

O'lchashlar						Xisoblashlar				
№	$\uparrow I$	$\uparrow U$	P	$\downarrow I$	$\downarrow U$	P_x	ΔP	σ	γ_n	γ_{kel}
	a	v	vt	a	v	vt	vt	vt	%	%
1.										
2.										
3.										
....										
n.										

3. Reostatning qarshiligin asta-sekin kamaytira borib, vattmetr strelkasi shkalanling eng kichik bo'linmasiga eştiyotlik bilan keltiriladi (10 martacha): ampermetr va voltmetr ko'rsatishlari yozib olinadi. Navbatdagi yozishlarini, zanjirdagi tokni

reostat bilan asta-sekin kupaytirib, shkalaning ўнгар 10 bo‘linmasida bajariladi. SHu tartibda vattmetr shkalasining oxirigacha bo‘lgan barcha nuqtalar olinadi. So‘ngra tajribani teskari tartibda bajarib, о‘lchash natijalari 2.1-jadvalga yoziladi.

4. Tuzatish egri chizig‘i chiziladi .

Tekshirilayotgan vattmetrni qaysi aniqlik sinfiga kiritish mumkinligi to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

4. Sinov savollari.

1. Elektrodinamik sistemadagi vattmetrning tuzilishi va ishlash qoidasi nimadan iborat?
2. Vattmetr shkalasining bo‘linish darajasi qanday aniqlandi?
3. Asbobning absolyut xatoligi deb nimaga aytildi?
4. Asbobning nisbiy xatolig deb nimaga aytildi?
5. Asbobning keltirilgan xatoligi deb nimaga aytildi?
6. Tuzatish egri chizig‘i nima?

2-TAJRIBA ISHI

Bir fazali elektron xisoblagichni tekshirish.

1.Ishdan kuzda tutilgan maksad:

- a) Bir fazali uzgaruvchan tok elektron xisoblagichni tuzilishi va ishlash prinsipi bilan tanishish.
- b) Bir fazali elektron xisoblagichni tekshirishni bajarish.

2.Tajriba ishiga tushuntirish

Uzgaruvchan tok zanjirida elektr energiyasini xisoblash uchun elektron xisoblagichlar kullaniladi. Xisoblagichni tekshirishdan maksad, uning Butuniitfok Davlat standartining talab va shartlarini koniktirish yoki koniktirmasligini aniklashdir. GOST 6570-60 ning texnik shartlari kuyidagicha:

- A) Kuvvat koefitsienti $\cos\phi=1$ bulib, nominal kuchlanish va chastotada xisoblagich kursatishining nisbiy xatoligi, aniklik klassi 0,1 bulgan xisoblagichlar uchun, tok nominalidan 10 dan 150% gacha yukori bulganda $\pm 1\%$ dan va aniklik klassi 0,2 bulgan schyotchiklar uchun, tok nominalidan 10 dan 200% gacha yukori bulganda, $\pm 2\%$ dan ortmasligi kerak.
- B) $\cos\phi=1$ bulganda xisoblagichning sezgirligi-aniklik klassi 1,0 va 2,0 bulgan schyotchiklar uchun, nagruzka nominaliga nisbatan 0,5% dan va aniklik klassi 2,5 xisoblagichlari uchun 1% dan ortib ketmaganida xisoblagich impuls tuxtovsiz signal berishi kerak.

3.Ishni bajarish tartibi

- 1.2-rasmdagi xisoblagichning tekshirish sxemasi yigiladi.
- 2.Lampali nagruzka reostati yordamida, nominal tok urnatilib, schyotchikni 15 minut davomida kizdiriladi.
3. Pasportda berilganlari buyicha schyotchikning nominal doimiysini xisoblab, olingan kiymatlar 2-jadvalga yoziladi:

2-jadval

№	I	I	U	n	t	Cn	Sx	$\pm\delta$
	%	A	V	ayl	sek			%
1								
2								
3								
4								
5								

4. Xisoblagichning nominal tokda kizdirgandan sung, t vakt ichida impuls soni n xisoblanadi. Impuls signali belgi paydo bulishi bilan kuzatuvchi sekundometrni yurgizib, signallar sonini sanay boshlaydi. «nol» («bir» demasdan) «bir» «ikki» va xokazo. Impulsning signallar sonini xisoblashni, sekundomer strelkasi muljallangan vaktga yakunlashguncha davom ettiriladi. Kuzatuvchi butun signallarlar soniga yakinrok xisoblab, sekundomerni tuxtatadi.

5.Zanjir kismlarida kuchlanish avtotransformator yordamida nominal ushlab turib, tok nominaliga nisbatan 75,50,25 va 10% larni tashkil etganda tajribani tokning xar bir kiymati uchun 2 marta kaytarib, ikki xisobning urtacha arifmetik kiymati olinadi. Tajribaning natijalari 2-jadvalga yoziladi.


6.Xisoblagichning sezgirligini aniklash.

Buning uchun sxemadagi ampermetrni olib, urniga ulash chegarasi 1 a gacha bulgan ampermetrni ulash lozim. Avtotransformator yordamida nominal kuchlanishni urnatib, lampali reostatda barcha lampalarni uchirib, xisoblagichning impulsi asta-sekin (tuxtovsiz) signali boshlagunga kadar reostatning karshiligi kamaytiriladi. Ana shu momentda ampermetr buyicha Imin ni aniklab schyotchikning sezgirligini δ ni xisoblanadi.

7. Xisoblagichning sezgirligi aniklangan sxemani uzgartirmasdan barcha lampalarni uchirib, avtotransformator yordamida kuchlanishni avval nominaliga nisbatan 80% sungra 110% ga uzgartirganda, ikkala xolda xam xisoblagichning impuls signali yonib uchmasa, demak, xisoblagichning uzi ishlamaydi.

8.Tajribada va xisoblanganlardan olinganlarga asosan xisoblagichning xatolik egri chizigi $\gamma qf(1\%)$ ni kuriladi.

9.Xisoblagichning ishlatishga yarokliligiga va kanday aniklik klassiga tegishligi xakida xulosa chikariladi.



2-rasm

Tekshiruv savollari.

- 1.Elektron sistemadagi bir fazali xisoblagichning tuzilishi va ishlash printsipli kanday?
- 2.Davlat standartlari bo'yicha xisoblagichlar uchun kanday talab va shartlar ko'yiladi.
- 3.Xisoblagichning uzatish soni nima?
- 4.Xisoblagichning sezgirligi deb nima tushuniladi?
- 5.Xisoblagichning nominal doimiysi deb nimaga aytildi?
- 6.Xisoblagichning xakikiy doimiysi deb nima tushuniladi va u kanday aniklanadi?
- 7.Xisoblagichning nisbiy xatoligi kanday aniklanadi?

3-TAJRIBA ISHI

Izolyasiya karshilagini megommetr bilan ulchash

1.Ishdan kuzda tutilgan maksad:

1. Megometrning ishlash prinsipi va tuzilishini organish.
2. Megometr yordamida izolyasiya karshilagini ulchashni organish.

2. Tajriba ishiga tushuntirish.

Izolyasiya xolatining yaxshiligi, xavfsiz ishlashni va elektr kurilmalarining tugri (buzilmasdan) va tuxtovsiz ishlashini ta'minlaydi. SHuning uchun ishlatish davrida elektr kurilmalari izolyasiyasining xolati davriy ravishda tekshirib turiladi.

Ishlatishning texnikaviy koidasiga asosan, nominal kuchlanishi 100 voltgacha bulgan elektr kurilmalarining izolyasiya karshiligi 1 Mom dan kam bulsa, ishlashga ruxsat etilmaydi.

Elektrotexnika kurilmalari izolyasiyasining xolatini kontrol kilib turishning keng tarkalgan va oddiy usuli, izolyasiya karshiligi mikdorini megometr yordamida ulchash xisoblanadi. Megometr kuchma ulchash asbobi bulib, generator va izolyasiya karshiligining mikdorini kursatuvchi ulchash asbobidan iborat. Generatorning yakori maxsus dasta yordamida xarakatga keltiriladi.

Ushbu laboratoriya ishida, bir fazali transformator birlamchi va ikkilamchi chulgaming pulat uzakka nisbatan, shuningdek, bir – birlariga nisbatan izolyasiya karshiligi aniklanadi.

Ishlatishning texnikaviy koidasi, transformator chulgaming temperaturasi 20° dan 40° gacha bulgan oralikda, izolyasiya karshilagini ulchashni tavsiya etganligi uchun, chulgamni kizdirish maksadida tajriba boshlanishidan avval transformator nominal nagruzkaga ularadi. Buning uchun transformatorni 3-rasmdagi sxema buyicha ulash kerak. Transformator chulgaming izolyasiya karshilagini pulat uzakka nisbatan ulchash uchun, megometrini erga biriktirishga muljallangan 3 kismasi transformatorning pulat o'zagiga ularadi. L kismasi esa, transformator birlamchi va ikkilamchi chulgaming biror kismasi bilan navbatma-navbat biriktiriladi (4-rasm).


Transformatorning chulgamlari orasidagi izolyasiya karshilagini ulchash uchun, megometrning 3 va L kismalari, transformator birlamchi va ikkilamchi chulgamlarining tegishli uchlari bilan biriktiriladi (5-rasm).

SHunga uxshash yul bilan boshka kurilmalarning (masalan, asinxron dvigatel, uzatish liniyasi va boshkalarning) xam izolyasiya karshilagini ulchash mumkin.


3.Ishni bajarish tartibi:

1. Megometrning principial biriktirish sxemasini kayta chizib xisobotga kushiladi. Sxema buyicha megometrning ishlashi tushintirib beriladi.
2. Megometrning instruksiyasi bilan tanishiladi.
3. Megometrning tipi va uning texnikaviy ma'lumotlari xisobotga yoziladi.


4. Transformatorning chulgamini kizitish uchun 3-rasmdagi sxema yigiladi, reostat R yordamida (ampermetr buyicha) nominal nagruzka urnataladi. Transformatorn 10 minut davomida nominal nagruzkada ishlagandan sung, uni tarmokdan ajratib, izolyasiya karshiligi ulchanadi.



3- pacm



4- pacm



5- pacm

5. 4-rasmdagi sxemani yigib, transformatorning chulgamlari orasidagi izolyasiya karshiligi ulchanadi.
 6. 5-rasmdagi sxemani yigib, transformatorning birlamchi va ikkilamchi chulgamlari orasidagi izolyasiya karshiligi ulchanadi.
 7. chulgamlari orasidagi izolyasiya karshiligi ulchanadi.

3-jadval

Tartib nomeri	Karshiligi ulchanadigan joy	Izolyasiya karshiligi Mom	
		mOm	kOm
1	Transformatorning birlamchi chulg'ami – o'zak		
2	Transformatorning ikkilamchi chulg'ami – uzak		
3	Birlamchi chulg'am – ikkilamchi chulg'am		

7.Barcha ulchashlarning natijalari 3-jadvalga yoziladi.

8.Transformatorning ishlashga yarokli-yarokmasligi tugrisida xulosa chikariladi.

5.Sinov savollar.

1. Megometrning tuzilishi va ishlash prinsipi kanday?
2. Izolyasiya karshiligni ulchash nima uchun zarur?
3. Izolyasiya karshiligining kanday mikdorida, elektr kurilma ishlatishga yarokli xisoblanadi?
4. Megometrning tugri kursatishiga kanday kilib ishonch xosil kilinadi?

4-TAJRIBA ISHI **Kabelning elektr sigimini aniklash**

1. Ishdan kuzda tutilgan maksad:

1. Kabelning elektr sigimini:
 - A) Kabelning ayrim simlari orasidagi elektr sigimini.
 - B) Kabelning kobigi biron simi orasidagi elektr sigimini ulchashni aniklash.

2.Tajriba ishiga tushuntirish

Kabelning tok utkazuvchi simlari, ularni ajratib turuvchi izolyasiyasi bilan birgalikda, shuningdek, kabelning xar bir simi va uning kobigi ma'lum sigimga ega. Kabel tarmoklarini xisoblashda kabelning sigimini xisobga olish kerak, chunki:

- A) kabelning sigimi elektr zanjirlarida buladigan ulash-uzish va kiska tutashuvlardagi utkinchi protsesslarga ta'sir kursatadi;
- B) Induktiv karshilik (elektr dvigatellari, reaktorlar) va sigim karshiligiga (kabel tarmoklari) ega bulgan zanjirda kuchlanish rezonansi xodisasi sodir bulishi mumkin. Kuchlanish rezonansida, zanjirning ayrim uchastkalarida, kabel izolyasiyasining butunligi uchun xavfli bulgan katta kuchlanishlar xosil buladi.

Kabelning sigimini kabelli liniyalarda remont ishlari olib borilganda xam xisobga olish kerak. Kabelli uchastkada remont ishini boshlashdan avval uni ikki oxiridan ajratib, ayrim simlarini uzaro ulagandan sung, remont ishini bajaruvchi shaxsning xavfsizligini ta'minlash maksadida va kabelni kondensator kabi razryadlash uchun ularni erga ulash kerak.

Ulchash natijasida olinganlar buyicha kabelning sigimi kuyidagi formula bilan xisoblanadi:

$$C = \frac{I \cdot 10^3}{\omega \cdot U}$$

Bu erda: I - ampermetr kursatgan tok, ma;

U - voltmetr kursatgan kuchlanish, v;


$\omega 2\pi f$ - uzgaruvchan tok burchak chastotasi, sek⁻¹;

f - tarmokdagi uzgaruvchan tok chastotasi, 50 Gs;

S- sigim, mkf.

3.Ishni bajarish tartibi

1. 6-rasmdagi sxema yigiladi.
2. Berilgan kondensatorning sigimini aniklash uchun ajratgichning turli xolatida tok va kuchlanish ning kattaligi ulchanadi.



6- расм

- A) kabelning kobigi bilan xar bir simi orasidagi sigim,
 B) kabelning simlari orasidagi sigim ulchanadi.
 3. Ulchash natijalari 4-jadvalga yoziladi.

4-jadval

№	Rubilniklar ulangan	Ulchash joyi	Ulchashlar		Xisoblashlar
			U V	I mA	
1	1,4	Sim 1 – kobik			
2	1,5	Sim 2 – kobik			
